

Uchinchi Bob

Qayg'uli kun o'tib, dekabrning tezkor shom qorong'usi, alang-bilang masxarabozday, bir zumdayoq yerni qopladi, u sinf xonasida derazaning to'rtburchak xira oynasiga termulib o'tirib, qorni ovqat talab qilib tatalayotganini his qildi. U kechki taomga sabzi, sholg'om solingan va achchiq murch sepilgan unli qayla ustiga kartoshka pyuresi va yog'li qo'y go'shti bostirib solingan qovurdoq bo'lar, deb umidlandi. Bularning barini joyla, derdi go'yo qorni qutqi solib.

Oqshom qop-qorong'i bo'ladi, zim-ziyo tun. Biroz qorong'i tushishi bilan isqirt kvartaldagi islovtaxonalarining u yer-bu yerida sarg'ish fonuslar miltillab yonadi. U tor ko'chalarda sanqiydi, o'sha tarafga intilib boraveradi, oyoqlari o'sha qorong'i burumga boshlab olib kirib ketmaguncha hayajon va qo'rquvdan qaltiraydi. Ayni payt fohishalar ham kunduzgi uyqudan turishib, esnashib, sochlaridagi to'g'nag'ichlarni tuzatishib, tungi uchrashuvlarga chog'langani ko'chaga chiqishadi. U xotinlarning favqulodda imo-ishora qilib qolishlaridan yoki gunohga ko'nikib qolgan yuragini o'rtaydigan atir hidi anqigan biror-bir momiq badanning chorlovidan umidvor bo'lib, ularning oldidan xotirjam yurib o'tadi. Va bu chorlovni u sergak kutarkan, tiyiqsiz mayillariga erk bergani oqibatida zaiflashib qolgan his-tuyg'ularini yerga urib, nafsoniyatini toptayotgan narsalarga behad diqqat bo'lib e'tibor qiladi: ko'zlari - yalang'och stolga to'kilgan pivoning halqa-halqa ko'piklariga, harbiychasiga g'o'ddayib turgan ikki askarning suratiga, tumtaroq afishaga tushadi; quloqlari - baqirib-chaqirgan, qiyqirib hol so'rashishgan tovushlarni eshitadi.

- Xello, Berti, xo'sh, nima bilan xursand qilasan, azizim?

- Ha, senmisan, do'ndiqcha?

- O'ninchi nomerga kir, jajji Nelli ko'zlari teshilib kutayapti.

- Bu oqshom bir yayray depanse-da, a, yigitcha?

Uning daftaridagi tenglama, darajalarni bildiradigan ko'zcha va yulduzchali belgilar bilan to'vusning serhasham dumiday yoyilib tarvaqaylab ketdi; darajalarning ko'zchalari va yulduzchalar o'zaro chog'ishtirilib qisqartirilgach, dum asta-sekin ixchamlasha boshladi. Darajalar xuddi bir ochilib, bir yumilib turgan ko'zchalardek paydo bo'lib va yo'q bo'lib turar, ko'zchalar yonib-o'chib turgan yulduzchalarday ochilar va yumilardi. Yulduzli hayotning ulkan girdobi uning toliqqan aql-hushini bir chetga surib ketar va yana hayal o'tmay ortga qaytarib olib kelar va uzozdan elas-elas eshitilayotgan musiqa sadosi bu harakatga jo'r bo'lardi. Bu qanday musiqa bo'ldi ekan? Kuy ohangi yaqinroqdan eshitila boshladi va u Shellining qorong'u osmonda tanho kezib yurgan, toliqib rangi siniqqan oyga bag'ishlangan misralarini esladi. Yulduzlar uvalanib keta boshladi va yulduzlar changining yupqa pardasi koinot qa'riga singib ketdi.

Boshqa bir tenglama yoyilib, sekin dum chiqara boshlaganda varaqdagi yorug' nur xira tortdi. Bu uning tomir yoyib, gunohlarga botib, yoniy yulduzlarday uchqun sachratib va yana yig'ilib, ohista so'nib, o'zining otash-alangasini o'chirib - shu zayil hayot yo'lga tushayotgan qalbi, ruhiyati edi. Uning yuragini o'rtaqan otash-alangalar o'chib-bitdi va bo'shab qolgan sovuq zim-ziyo qalbini loqayd mubhamlik egalladi.

Uning borlig'ini sovuq sergak befarqlik egallab oldi. Birinchi marta gunohga yo'l qo'rganidan qattiq iztirobga tushganida yuragining tub-tubidan vulqonday qaynab-toshib kelgan g'azab va nafrat otashin tanini yo bo'lmasa ruhini kuydirib, bir umrga majruh qilib qo'yadiganday tuyulib, qattiq qo'rqqandi. Biroq hayot to'lqini uni goh g'arq qilib, goh pasayib-tushib asta-sekin o'ziga keltirdi. Bu taloto'mdan uning tani, ruhi omon qoldi va ular o'rtasida so'zsiz-so'roqsiz bitim b' murosas paydo bo'ldi. Yuragidagi behalovat tuyg'ularga barham bergan mubhamlik bir qadar befarq bo'lib, sovuqqonlik bilan o'zini-o'zi anglashga aylandi. U bir emas, bir necha marta og'ir gunohga qo'l urgan edi va birinchi qilgan gunohining o'zi uchun abadiy la'natga qolishi tayinligini bilar, keyingilari esa tortajak azoblariga yana azob qo'shardi, xolos. O'tayotgan kunlar, mashg'ulotlar va azobli o'ylar endi uning gunohlarini yengillatmas - ob-hayot bulog'ining huzurbaxsh suvi endi uning qashshoq ruhiga, ruhiy tashnalikdan qaqragan vujudiga tiriklik shavqini bag'ishlamas edi. Endi u gadoylarga sadaqa berganida bir zum to'xtab, ularning duolarini eshitib o'tirmas, burilib ketib qolar va horg'in xayol surib, balki shunday qilsam ozgina bo'lsa-da savob olarman, deb umidlanardi. Xudojo'ylikni butunlay tark etgandi. Qilgan og'ir gunohlari uchun do'zax olovda yonadigan bo'lganidan keyin toat-ibodatdan nima foyda? Garchi uyqusida ham jonini olish va do'zax oloviga tashlash Yaratganning irodasiga bog'liq ekanini, bunday paytda hatto rahm-shafqat tilashga ham ulgura olmay qolishini bilsa-da, yuragidagi kibr va azbaroyi ixlos bilan qo'rqishi uning og'iz ochib duo o'qishiga monelik qilardi. O'zining gunohlarini kibr bilan tan olishi va ko'nglidagi Yaratganga muhabbatdan xoli qo'rquv qo'l urgan jinoyati behad kattaligini, hamma narsadan ogoh va hamma narsani bilguvchi zotga munofiq'larcha tavba-tazarru qilgan bilan gunohlardan xalos bo'lishining iloji yo'qligini mudom uqtirib turardi.

- Bilasizmi, Ennis, sizning yelkangizdagi bu kalla emas, shunchaki oshqovoq, desa ham bo'laveradi. Sizga nima bo'ldi o'zi - nahotki irratsional miqdor nimaligini bilmasangiz?

Betayin javobdan sinfdoshlariga nisbatan uning ko'nglida g'imirlagan bepisandlik battar kuchaydi. Endi u boshqalar oldida uyalib-netib o'tirmas edi. Yakshanba kunlari ertalab, cherkov yonidan o'tayotib, ibodat qilayotganlarga beparvo qarab qo'yardi; odamlar to'rttadan tizilishib, boshlarini egishib, cherkovning eshigi oldida itoatkor turishar, ichkaridagi ibodatni ko'rmayotgan va eshitmayotgan bo'lishsa-da, o'zlarini marosimda ishtirok etayotganday tutishardi. Ularning ma'yus xudojo'y qiyofalari va sochlariga surtishgan arzon moyning ko'ngilni aynitadigan hidi bu muqaddas joydan uning ixlosini qaytarardi. U ham boshqalar qatori riyokorlikka yo'l qo'yar, biroq avomning soddadilligiga, shunday osongina aldanishiga mutlaqo ishonmasdi.

Uning yotadigan xonasi devorida unga kollejdagi Bibi Maryam birligi jamoasining prefekti unvoni berilgani haqidagi chetlari naqsh bilan bezatilgan yorliq osig'liq turardi. Shanba kunlari, jamoa a'zolari ibodat xizmatini o'tash uchun cherkovga yig'ilishganda, u mehrobdan o'ng tomondagi faxrli joyni egallar, mato qoplangan kichkina o'rindiqqa tizzasini bukib o'tirib, marosim payti xorning o'ziga tegishli qanotini boshqarardi. Bu soxta holat uning vijdonini qiynamas edi. Ba'zi daqiqalarda uning faxrli o'rindan sakrab turib, hammaning oldida riyokorligi uchun tavba-tazarru qilib, cherkovni tashlab chiqib ketgisi kelar, biroq tevaragidagi odamlarning yuzlariga bir qarashning o'zi qalbidagi bu g'alayonni bosish uchun yetarli bo'lardi.

Oyatlardagi obrazli bashoratlar uning nafsiz g'ururiga o'zgacha zeb berardi. Maryamni sharaflovchi balandparvoz hamdu sanolar: xushbo'y nardin, miro va ladan - Bibi Maryamning ilohiy nasl-nasabi belgilari, kech gullaydigan daraxt va kech ochilgan gul - asrlar osha uning ulug'vorligini odamlar ongiga singdirib kelgan timsollar Stivenning qalbini asir etardi. Va ibodat yakunida Muqaddas bitikni o'qish navbati unga yetganda, Stiven bo'g'iq ovozdagi, so'zlar ohangi bilan vijdonini yupatib, allalayotganday bir maromda o'qiy boshlardi:

"Quasi cedrus exaltata sum in Libanon et quasi cupressus in monte Sion. Quasi palma exaltata sum in Gades et quasi piantatio rosae in Jericho. Quasi uliva speciosa in campis et quasi plaranus exaltata sum juxta aquam in plateis. Sicut cinnamomum et balsamum aromatisans odorem dedi et quasi myrrha elesta dedi suavitatem odoris"[1].

1 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Ilohiy siymoning undan yuz o'g'irishiga sabab bo'lgan gunoh uni beixtiyor jami gunohkorlar g'amxo'riga yaqin qilib qo'ydi. Bibi Maryamning ko'zlari unga mehr bilan yuvosh qarab turganday tuyular, nozikkina jussasini chulg'agan ilohiy yog'du najot istab o'zi tomon talpingan gunohkorlarni hecham tahqirlamasdi. Agar qachondir uning yuragida: endi hech qachon gunohga qo'l urmayman, tavba qilaman, degan xolis xohish uyg'ongan bo'lsa, bu shubhasiz, o'zini Bibi Maryam xizmatiga bag'ishlash istagidan edi. Agar qachondir uning ruhi, tanini junbishga keltirgan behalovat mayllar bosilgach, uyat va alam bilan o'z dargohiga qaytib va unga tomon - timsoli "ko'k toqidagi yorqin, ohanrabo, samo sirlaridan ogoh etib, olamga osoyishtalik bag'ishlovchi" B tong yulduziga talpingan bo'lsa, bunday lahzalarda Bibi Maryamning ismi, hali bema'ni va uyat so'zlar va tanigagina rohat bag'ishlagan beandisha o'pichlar ta'mi arimagani lablaridan chiqar edi.

Bu, chindan g'alati edi. Bunday holatlar qanday yuz berishini u o'zicha tushunishga urindi. Biroq sinf xonasini qoplagan g'ira-shira qorong'ulik uning fikrlarini ham chulg'adi. Qo'ng'iroq chalindi. O'qituvchi topshiriq berib, chiqib ketdi. Stivenning yonida o'tirgan Kuron soxta ohangda xirgoyi qildi:

Mening do'stim, go'zal Bombados.

Tashqariga chiqib ketgan Ennis, sinfga kirib, yangilikni xabar qildi:

- Xizmatkor keldi, rektorni so'rab.

Stivenning orqasidagi bo'ychan o'quvchi qo'llarini bir-biriga ishqab, dedi:

- Yashasin! Endi bir soat mazza qilib laqillashsa bo'ladi. Soat ikki yarimgacha qaytib kelmaydi. Keyin sen unga katexizisdan3 savol berib, gapni aylantirasan, xo'pmi Dedalus.

Stiven kiftini partaning suyanchig'iga tashlab, yastanib, qo'lidagi qalamni daftar ustida parishonxotir yugizib o'tirganicha, safsatalarga quloq solar, tutruqsiz gap-so'zlarni Kuronning ora-sira qichqirgan ovozi bo'lib turardi:

- Sekinroq gapirsanglar-chi! Shunaqayam shovqin ko'tarasizlarmi!

Cherkovning qat'i aqidalarining tub ildizlariga, sirli tomonlariga nazar tashlash va o'zining ana shu qoidalarga ko'ra qoralanganini eshitish, buni chuqur his etishga bo'lgan ishtiyoqi ko'ngliga allaqanday qayg'uga qorishgan sevinch ulashishi ham Stivenga juda g'alati tuyulardi. Avliyo Ya'qubning bitta muqaddas o'gitga zid ish qilgan kishi barcha o'gitlarni buzgan, muqaddas o'gitlarning hammasiga qarshi gunoh qilgan bo'ladi, degan hikmati unga, qalbining qorong'u burchaklariga zehn solib qaramaguncha, balandparvoz gapday tuyuldi. Barcha og'ir gunohlar: manmanlik va boshqalarni nazar-pisandga olmaslik, pulga hirs qo'yish va uning vositasida aysh-ishratga qo'l urish imkoniga ega bo'lish, buzuqlikda o'zidan omadliroq kimsalarga havas bilan qarash va yaxshi xulqli kishilar ustidan ig'vo yuritish, ochko'zlik, beta'miz o'y-xayollarga berilib, uningday ehtiros olovida yonish, ruhan va jismonan karaxtlik botqog'iga botib, oqibatda vujudini nahs bosib ketgani, aslida, axloqsizlikning bema'ni urug'idan urchigan gunohlardir.

Ko'pincha u partada, rektorning qat'iyatli jiddiy yuziga xotirjam qarab o'tirib, har xil tagdor savollarni o'ylab topib, shu bilan vaqtini chog' qilar edi. Agar kishi yoshligida pul o'g'irlasa va shu o'g'irlagan pulidan katta boylik orttirgan bo'lsa, gunohidan xalos bo'lishi uchun qancha qaytarishi kerak - o'g'irlagan miqdordagi pulni foyizi bilanmi yoki jami yiqqan boyliginimi? Agar oddiy odam go'dakni cho'qintirayotib aytishi lozim bo'lgan duo so'zlarini aytmay turib suv purkasa, go'dak cho'qintirilgan hisoblanadimi? Mineral suv bilan cho'qintirilsa ham hisobga o'tadimi? Nima uchun birinchi o'gitda mo'min-qobil kishilar, beva-bechoralarga jannat va'da qilinadi-yu, ikkinchi o'gitda yer yuziga yuvvosh, beozor bandalar voris bo'ladilar deyiladi? Ilohiy qovushish marosimida ham non, ham vino iste'mol qilinishining boisi nimada, Isoning vujudi va qoni, ruhi va ilohiy mohiyati faqat nondami yoki faqat vinodami? Isoning vujudi va qoni tabarruk qilingan non ushog'ida bus-butunicha mavjud bo'ladimi yoki qisman qo'shilgan bo'ladimi? Mabodo, tabarruk qilingandan keyin vino aynib sirkaga aylansa, non mog'or bosib, uvalanib qolsa, shunda ham Iso iloh va inson sifatida ularda mavjud bo'laveradimi?

- Kelayapti, kelayapti!

Derazadan poyloqchilik qilib turgan o'quvchilardan biri rektorning bosh binodan chiqqanini ko'rib qichqirdi. Katexizislar ochildi va bolalar muk tushib kitob o'qishga kirishdilar. Rektor kirib, minbarda o'z joyini egalladi. Bo'ychan o'quvchi rektorga biror-bir qiyin savol ber, degan ma'noda sekingina Stivenni turti.

Biroq rektor odatdagiday katexizisni berib turishni so'ramadi va darsni ham surishtirmadi. U qo'llarini stolga qo'yib, dedi:

- Chorshanba kuni biz avliyo Fransisk Ksaveriy sharafiga bag'ishlangan diniy mashg'ulotlarimizni boshlaymiz, uning xotirasiga atalgan bayram shanba kuni bo'lib o'tadi. Diniy mashg'ulotlar chorshanbadan jumagacha davom etadi. Juma kuni, kunduzgi ibodatdan keyin shomgacha cherkovda ibodat qilinadi. Gunohini kechuvchi o'z ruhoniysi bor o'quvchilarga ularni almashtirmaslikni maslahat beraman. Shanba kuni soat to'qqizda ibodat va butun kollej uchun umumiy ilohiy qovushish marosimi bo'ladi. Shanba kuni mashg'ulotlar yo'q. Shanba va yakshanba bayram, biroq bundan dushanba ham bemalol ekan, degan fikrga bormaslik kerak. Bunday adashishlarga yo'l qo'ymaysizlar, degan umiddaman. Menimcha, Dedalus, siz ko'proq adashib qolishga moyilroqsiz.

- Menmi, ser? Nega, ser?

Rektorning qahrli jilmayishidan sinfdan yengil kulgi ko'tarildi. Stivenning yuragi, so'ligan gulday, sekin junjikib, uvisha boshladi. Rektor boyagiday jiddiy, qat'iyatli ohangda davom etdi:

- Kollejimiz homiysi avliyo Fransisk Ksaveriyning hayoti tarixini yaxshi bilasizlar, deb o'ylayman. Avliyo Fransisk qadim ispan urug'laridan va sizga ma'lumki, u avliyo Ignatining eng to'ng'ich shogirdlaridan edi. Ular Parijda tanishishgan, o'sha paytda Fransisk Ksaveriy universitetda falsafadan dars bergan. Bu olijanob yosh zadagon, olim, adib kollejimizning buyuk asoschisi ta'limotini butun qalbi bilan chuqur his etgan va albatta, xabaringiz bor, u o'z xohishiga ko'ra, avliyo Ignatij tomonidan hindlarga Iso ta'limotini yoyish uchun Hindistonga jo'natilgan. Shu boisdan ham uni Hindiston havoriysi, deyishadi. U butun Sharqni kezib chiqqan: Afrikadan Hindistonga, Hindistondan Yaponiyagacha borgan, ma'jusiyalarni xristianlikka da'vat etgan. Bir oy ichida o'n ming budparastni cho'qintirgan. Ularning boshi ustida ko'taraverib, tinimsiz cho'qintirganidan o'ng qo'li ishlamay qolgan. Shundan keyin ham ko'p odamlarni dinga kiritmoqchi bo'lib, Xitoyga jo'nashni mo'ljallagan edi, biroq San'sizyan orolida bezgakka chalinib qazo qilgan. Fransisk Ksaveriy ulug' avliyo edi! Isoning buyuk askari edi!

Rektor bir muddat jim qoldi, keyin, barmoqlari chalishtirilgan qo'llarini sermab, davom etdi:

- U tog'ni o'rnidan jildirishga qodir bo'lgan kuchli e'tiqod sohibi edi! Bir oy ichida o'n ming jonni dinga kiritishning o'zi bo'ladimi! Mana chin fotih, ordenimiz shoriga chinakam sadoqat: ad majorem Dei gloriam. Shuni unutmanglarki, samoda bu avliyoning hukmi barhaqdir! Uning qudrati musibatlarimizga tangridan ijobat so'raydi, ibodatlarimiz ijobat bo'lib, tilagimiz, magar bizning baxtimizga xizmat etsa, qondirilishini so'raydi, va tag'in, eng muhimi, gunoh qilgan bo'lsak, tavba-tazarrularimizni yetkaradi. Ulug'

avliyo Fransisk Ksaveriy! Odamlar qalbining buyuk sayyodi!

U qo'llarini sermashdan to'xtatib, ularni manglayiga bosdi va qoramtir qahrli ko'zlari bilan tinglovchilarga sinchiklab qarab chiqdi. Ko'zlarining qoramtir yolqini g'ira-shira yorug'likda cho'g'day yaltiradi. Stivenning yuragi, uzoqdan kelayotgan garmselni sezgan cho'l qizg'aldog'iday junjikib ketdi.

\* \* \*

- "Bilginki, barcha kor-a'molingda oxiratingni yodingda tutmog'ing joiz va aslo gunohga qo'l urmagaysan" - ushbu kalom, mening ahli Iso birodarlarim, Ekklesiast kitobidan olingan, yettinchi bob, qirqinchi misra.

Stiven cherkovda birinchi qatordagi o'rindiqlarda o'tirardi. Hazrat Arnoll kichkina stol ortida mehrobdan chap tarafda o'tirardi. Og'ir plash uning yelkasidan sirg'alib tushib borar, yuzi so'linqiragan va tumovligidan tovushi xirillab chiqardi. Keksa o'qituvchining yuzi, bunday kutilmagan vaziyatda uning qarshisida paydo bo'lgani, Stivenga Klongous hayotini eslatdi: katta sport maydonlari, to'pirlashib yurgan bolalar, hojatxonaning teshigi, o'zining dafn etilishini orzu qilgan bosh arg'uvonzor xiyobon ortidagi mo"jaz qabriston; u betob bo'lib yotgan kasalxona devorida bilanglab o'ynagan kamin alangasi aksi, Maykl og'aning g'amgin chehrasi. Bu xotiralar ko'z o'ngidan birma-bir o'tgani sayin, uning ruhi tozarib go'daknikiday pokiza bo'lib borardi.

- Biz bugun, mening aziz ahli Iso inilarim, qisqa bir muddatga, foniyl dunyo tashvishlaridan xoli bu maskanda yig'ilgan ekanmiz, murodimiz ulug' avliyolardan biri, Hindiston havoriysi, bizning kollejimizning homiysi avliyo Fransisk Ksaveriy xotirasini yodga olmakdir. Har yili, mening azizlarim, juda uzoq zamonlardan beri, buning qachon boshlangani na sizga va na menga ma'lum, kollej tarbiyalanuvchilari ayni mana shu cherkovga o'z homiylari sharafiga o'tkaziladigan ayyom arafasida yillik diniy mashg'ulotlarga jam bo'lishgan.

O'shandan buyon ko'p zamonlar o'tdi va ko'p narsalar o'zgardi. Hattoki, so'nggi yillar ichida, o'zingiz guvohligingizda qancha o'zgarishlar yuz berdi. Hali-zamon bu o'rindiqlarda o'tirganlarning ayrimlari endi bizdan olisdalar - allaqaylardagi jazirama madorlarda; kimdir xizmat joyida, kimdir o'zini ilm-ma'rifatga baxshida etgan, boshqa biron uzoq mamlakatning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan puchmoqlarida sayru sayohatda, kimdir balki tangri irodasi bilan dorilbaqoga rixlat qilgandir va uning huzurida hisob berar. Kullaski, yillar oqar suvdag' o'tib borayotir, o'zi bilan yomoni ham, yaxshini ham oqizib ketayotir, ulug' avliyoning xotirasini esa kollej tarbiyalanuvchilari hanuz e'zozlab kelishayotir va bizning bir necha kun davom etajak diniy mashg'ulotlarimiz katolik ispan o'lkasining mustahiq o'g'lonlaridan birining muborak nomini va shon-sharafini abadiyatga doxil etish maqsadida muqaddas cherkovimiz tayin etgan ayyom arafasida o'tadi.

Endi o'zimizdan so'raylik: xo'sh, "diniy mashg'ulotlar" nimani anglatadi va tangri hamda insonlar nazarida chin nasroniycha umrguzaronlikka intilganlar uchun bu mashg'ulotlarning, ayniqsa, basavob ham joiz sanalishi boisi nimada? Diniy mashg'ulotlar, azizlarim, bu tiriklik g'amidan, foniyl dunyoning kundalik tashvishlaridan muayyan muddat chekinish va shu yo'sin iymonimizni bir imtihon qilib olsak, muqaddas din siru sinoatlari borasida fikrlamak va bu dunyoda mavjudligingiz mohiyatini anglab olmakdir. Mana shu sanoqli kunlar mobaynida men sizga to'rt Oxirgi Unsurga taalluqli fikrlarni bayon qilishga harakat qilaman. Bular esa sizga katexizisdan ma'lum bo'lgan: qazo, mahshar, do'zax va jannat. Biz mana shu kunlar mobaynida ularni imkon boricha yaxshiroq fahmlab olishga urinamiz, fahmlab olish asnosida ruhiyatimiz abadiy huzur-halovatga doxil bo'lajak. Bilingkim, azizlarim, biz bu dunyoga yakka-yolg'iz maqsad ilinjida chorlanganmiz: murodki, tangrining muqaddas irodasini ado etmak va ruhiyatimiz boqiyiligini asramak. Qolgan barchasi - foniylidir. Muhimi bitta - ruhoniyatimizni asramak. Inson, magar u yer yuzini qo'lga kiritsa-yu, biroq ruhoniyatining boqiyiligini yo'qotsa - undan ne foyda? Hayhot, azizlarim, bu o'tkinchi dunyoda bundayin ayriliqning o'rnini bosadigan nimarsa yo'qdir.

Shu vajdan, aziz birodarlarim, mening sizdan o'tinchim shulki, bir necha kunga bu dunyoga bog'langan o'y-rejalaringiz, saboqlar, ko'ngilxushliklaru izzattalab ishtiyoqlarni bir chetga qo'ya turing, ruhoniyatigiz ahvolini o'ylang. Sizga eslatib o'tishimning hojati yo'qdir, darvoqe diniy mashg'ulot kunlari ruhiyatigiz xotirjamlik va xudojo'ylikda ustuvor bo'lajak va siz nomunosib ko'ngilochar shovqin-suronlardan tiyilib turishingiz lozimdir. Yoshi kattalaringiz kuzatib bormog'ingiz joizki, toki bu qoidalar buzilmasin. Ayniqsa, mening iymonim komilki, bizning Bibi Maryam birligi jamoasi prefektleri va a'zolari hamda muqaddas farishtalar birligi jamoasi o'z birodarlariga munosib namuna bo'lajaklar.

Avliyo Fransisk sharafiga bag'ishlangan mazkur marosimni chin yurakdan va o'y-xayolimizni to'la-to'kis safarbar etib, ado etaylik. Yaratganning o'zi sa'y-harakatlaringizdan marhamatu madadini darig' tutmasin. Ammo ba'd eng zaruri va eng muhimi shuki, bu diniy mashg'ulotlarni siz oradan yillar o'tib, butkul o'zga shart-sharoitlarda yurgan chog'laringizda, bosib o'tganingiz umr yo'lga bir qayrilib qaraganingizda ko'nglingiz yorishib, parvardigorga shukronalar aytasizki, sizni tavfiqli, mustahiq, g'ayratli umrguzaronlikning ilk tamal toshini qo'yishga muyassar etibdi. Va mabodo ayni shu lahzalarda orangizda ko'ngli faqir, ruhiyati qashshoqlar ham ishtirok qilayotgan bo'lsa, mudhish ko'rgulik ular boshiga tushib, tangri marhamatidan benasib qolib - og'ir gunohga botgan bo'lsalar, men parvardigorga o'tinaman va ibodat qilib so'rayman, bu diniy mashg'ulotlar o'sha boyoqishlarning qashshoq ruhiyatida ezgulik tomon o'zgarish sodir etgay. Parvardigorga, uning g'ayratli quli shohidu madadkor Fransisk Ksaveriyga ibodat qilamanki, o'sha g'arib jonlarni chin yurakdan tavba-tazarruga chorlagay va minbad muqaddas marosim vositasi ila ular Fransisk ayyomi kuni Yaratganning o'zi bilan yakdil bo'lgay. Taqvodoru dinsiz, avliyo-yu gunohkor - barcha uchun bu ruhoniyl mashg'ulotlar umr bo'yi nurli xotira bo'lib qolgay.

Menga ko'maklashing, aziz ahli Iso inilarim! O'zingizning e'tiqod nuridan yorishgan idrokingiz bilan, g'ayratli sa'y-harakatingiz bilan, odobu axloqingiz, xush fe'lingiz bilan menga ko'maklashing. Miyangizdan nojoiz o'y-fikrlarni haydab-quving va faqat Oxirgi Unsurlar: qazo, mahshar, do'zax va jannat haqida o'y suring. Kimda kim bularni yodida tutgan ekan, gunohdan abadiy xolidir, deydi Ekklesiast. Kimda kim bularni yodida tutgan ekan, neki sa'y-harakati, fikr-xayoli bor - barisida ular ko'z o'ngida muqim turgay. U iymonli umr ko'rgay va iymon bilan ketgay, zero, uning ko'ngli iymon va ishonch nuri bilan to'lug'dirki, foniyl dunyoda chekkan jami jabru jafolari chin dunyoda yuzlar va minglar karra rohat va farog'atga aylanib qaytajak, abadiy huzur-halovat ato etajakki, men sizning hammangizga va har qaysingizga, aziz do'stlarim, tangri taolodan shuni tilayman. Omin! Vazmin bo'lib qolgan do'stlari to'dasida uyga qaytarkan, Stiven aqlini allaqanday qalin tuman pardasi qoplab olayotganini his etdi. Tuyg'ular iskanjasida u bu tumanning ko'tarilishini va uning ortida yashiringan siru sinoatdan voqif bo'lishni kutdi. Ovqatni u bosh ko'tarmay, yutoqib yedi, tushlik tugab dasturxon usti yog'li taxsimchalarga to'lib ketdi, u og'zidagi yog' yuqini tili bilan sidirib yaladi, tamshanib o'rnidan qo'zg'aldi va deraza yoniga keldi. Uning o'ljasini yeb bitirib, tumshug'ini tili bilan yuvayotgan yirtqichdan farqi yo'qday edi. Bu tamom degani; qo'rqinch, xavotir sharpalari aqlini chulg'agan tuman pardasini yirtib, miyasida g'imirlay boshladi. U yuzini deraza oynasiga bosdi va qorong'u tusha boshlagan ko'chaga qaradi. U yer-bu yerda yo'lovchilarning

qorasi ko'rindi. Hayot deganlari shumikan. "Dublin" so'ziga uyushayotgan harflar qo'rslik bilan bir-birini itargilab sarkashlik qilar, uning miyasini sirqirاتب siqar edi. Yuragi yog'ga bo'kib qalqib-qalqib suzar va bo'g'ilar, ma'nisiz xavotirdan mash'um girdobga tushib ketar, vujudini - lanj, jirkanch, nochor tanini allaqanday shahvat ilohasi o'ziga tamom bo'ysundirib olgan edi. Ertangi kungi va'z qazo va ro'zi mahshar haqida bo'ldi va uning ruhi mudroq umidsizlikdan asta-sekin uyg'ona boshladi. Ruhoniyning hirqiroq ovozi o'lim vahshatini ko'ngliga solganida uning yuragidagi xavotir qo'rquvga aylandi. U ajal talvasasini tuydi. Ajalning sovuq sharpasi uning oyoq-qo'llaridan ohista sirg'alib, yuragi tomon o'rmalayotganini, qorong'u tumanday ko'z oldini qoplab, hali-zamon tafakkur yolqinidan yorishgan miyasidagi nurafshon fikrlarni fonuslarni o'chirganday birin-ketin o'chirib, idrokini chulg'ab oldi; badaniga jonchiqar telar tepchiyotir; muskullari paxtaday bo'shashib jonsizlanayotir, tili kesakday qurib, og'zida qotdi, yuragi tobora sekin-sekin urayotir, mana, urishdan to'xtab ham qoldi, nafasi, nochor nafas, ojizu notavon tanda joni entikib tipirchilab xirillaydi va bo'g'ziga tiqilib talvasaga tushadi. Najot yo'q! Yo'q! U, uning o'zi, shahvoniy mayllariga bo'ysungan tani o'layotir. Lahadga elting uni! Yog'och qutiga joylang, yollangan tobutkashlar yelkasiga ortib, uydan olib chiqib keting. Chuqurga, odamlar ko'zidan uzoqroqqa daf qiling, go'rga tiqing, u yerda chirydi, qurt-qumursqalarga, ochofat kalamushlarga yem bo'ladi.

Do'stlari ko'zlarida yosh bilan uning jasaki ustida bosh egib turishgan bir pallada, gunohkorning jonini hakam so'roqqa torta boshlaydi. So'nggi lahzalarda foni duniyodagi hayoti bir sira ruhi qarshisida namoyon bo'ladi va ruh bir qaror topib ulgurmay, tan o'ladi, qo'rquvga chulg'angan ruh titrab-qaqshab tangri so'rog'iga doxil bo'ladi. Shuncha vaqt rahm-shafqatini darig' tutmagan tangri endi qilmishiga yarashasini in'om etadi.

U uzoq sabr bilan kutdi, gunohkor bandasini iymonga chorladi, tavba-tazarruga imkon berdi, shafqat, muruvvatlar qildi. Biroq endi fursat o'tdi. Gunoh ishga qo'l urib, nafs yo'lga kirgan, tangri va uning muqaddas cherkovi o'gitlariga kulib qaragan, qudratidan gumonsiragan, muqaddas hikmatlarini pisand etmagan, tevarak-atrofdagilarni aldagan, gunoh ustiga gunoh qilib, buzuqliklarini o'zgalar nazaridan yashirgan vaqtlar endi o'tdi-ketdi. Barchasi uchun yaratganning huzurida javob berish fursati yetdi: tangrini chuv tushirishning ham, aldam-qaldam bilan qutulishning ham iloji yo'q. Bu yerda tangri irodasiga bo'ysunmagan g'ayur isyonkorona va bandai o'jizning noravo buzuq tabiatiga xos o'ta sharmandali hamda eng mayda qusurlaru jirkanch zo'ravonlikkacha - har bir qilingan gunoh ro'yobga chiqadi. Modomiki, ahvol shundoq ekan, buyuk imperatormiding, sarkarda va yoki g'aroyib ixtirochi yo tengi yo'q olim bo'lganmiding - befoyda. Tangri hukmi oldida barcha baravar. U iymonli bandalarini siylaydi, gunohkorlarni jazoga mustahiq etadi. Odam ruhini taftish etmoqqa bir daqiqalik fursat kifoya. O'sha bir daqiqagina - jon tanani tark etgan, ruh adolat tarozusiga qo'yilgan oniy lahza! Hukm o'qiladi va ruh rohat-farog'at quchog'iga yoki arosat sahrosiga yoxud ohu-fig'on bilan do'zax qa'riga ravona bo'ladi.

Biroq bu hali hammasi emas. Tangrining adolatli hukmi bandalari qulog'iga yetib bormog'i lozim, zero, bu hukmdan keyin navbat boshqasiga. Ya'ni, oxirgi kun - Ro'zi mahshar keladi. Ko'k toqidagi yulduzlar shamol qoqqan anjir daraxtining mevalariday to'pirlab yerga to'kiladi. Olam chirog'i quyosh gadoning egnidagi jandaday abgor holga keladi; oy qontalash tus oladi. Osmon yirtilib, o'ralgan qog'ozday yig'ilib qoladi. Arshi - a'lo lashkari sarkardasi ulug' va qudratli maloik Mikoil osmondan tushadi. Bir oyog'i bilan dengizga, ikkinchisi bilan yerga qadam qo'yadi va u tortgan sur sadosi oxir zamondan darak beradi. U uch bora tortgan sur ohangi olamga taraladi.

Zamon bor, zamon bor edi, biroq endi zamon barham topdi. Surning so'nggi sadosi bilan bani odamzod b'boy va kambag'al, yaxshi va yomon, oqil va ahmoq, olijanob va razil oyoqqa qalqib, Iosafat vodiysi tomon irg'ishlaydi. Qachondir umr ko'rgan, dunyoga kelmoq nasib etgan Odam Atoning jamiki o'g'il qizlari - hamma-hammalari bu ulug' kunda hozir bo'ladilar. Ana shunda oliy hakam hozir bo'ladi! Na tangrining itoatkor qurbonlik qo'zisi, odamovi nasrolik Nabi Yasu, na odamning ma'sum o'g'li va na ezgu qo'yichivon najotga keladi. U bulutlar ustida ilohiy qudrat, shon-shavkatlarga burkanib paydo bo'ladi va tevaragida to'qqiz mulozimi hoziru nozir: farishtalar va maloiklar, taxtlar, boyonlar, qudrat, samo kuchlari, oliy va eng yuqori martabali farishtalar. U aytadi va uning ovozi olamning hamma burjiga, jahannam qa'rigacha yetib boradi. Oliy hakam u, ugina hukmni o'qiydi, bu hukm eng so'nggisi. U iymonli mo'minlarini o'z panohiga oladi va sizlar uchun bunyod etganim b'boqiy huzur-halovat saltanatiga kiring, deydi. Iymonsizlarni esa quvib haydaydi va ilohiy g'azab bilan xitob qiladi: "Ko'zimdan nari keting, betavfiqlar, olovda kuyingiz, iblis va uning malaylari yonajak olovda". Eh, badbaxt gunohkorlar uchun bu naqadar og'ir azob! Birodarlar bir-biridan, farzand ota-onadan, erlar ayollaridan ayri tushadilar. Baxtiqaro gunohkor banda yolvorib qo'l cho'zadi, talpinadi, balki foni duniyoda uning uchun aziz, bir paytlar sodda va samimiyligidan o'zi kulgan kishiga talpinar, balki diyonatli yo'lga da'vat etgan, pand-nasihati qilgan kishiga intizor boqar, bag'rikeng birodariga, mehribon opasiga va yo unga jon-dilini baxshida etgan otasiga, onasiga iltijo etar. Nadomatlar bo'lsinki, kech! Diniga sodiq odamlar iymoni kuygan, mahkum jonlardan yuz o'giradilar, chunki bunday jonlar qabihliklari bilan bandai mo'minlar ko'z oldida jazoga tortiladilar. O', siz, riyokorlar, siz, oxirati kuyib ketganlar! Siz, foni duniyoda shirin tabassumli qiyofada ko'rinish berib yurganda ruhingiz gunohlarning badbo'y o'rasiga aylanganlar - bu qahrli kunda holingiz ne kechadi?

Bu kun keladi, kelishi muqarrar, kelishi shart b'qazo kunining, Ro'za mahsharning! Bandasining qismati b'jon taslim etmak va qazosidan so'ng parvardigor so'rog'iga doxil bo'lmakdir. Qazoimiz muqarrarki, buni biz bilamiz. Bu qachon va qanday ro'y beradi, uzoq davom etuvchi kasallikdan keyinmi yo baxsiz tasodif oqibatidami - bunisi bizga noayon. Inson o'g'lining qay mahal paydo bo'lishi, qaysi kun, qaysi soatda - bundan-da voqif bo'lolmaymiz. Hushyor turingiz va unutmangizkim, siz xohlagan daqiqada o'lishingiz mumkin. Qazob'hammamizning qismatimizda bor. Odam qavmi boshida turganlarning gunohidan yo'g'rilgan o'lim va so'roq - mavjudligimizda bekiladigan va qazo qilgach bandasiga noayon xilqat tomon yo'l ochadigan qorong'u eshikki, neki jon bor, yakka-yolg'iz, bir o'zi, faqatgina qila olgan ezgu ishlaridan boshqa har qanday ilinju tayanchdan b'do'stu birodaru qondosh-jondosh, ustoz marhamatidan tamom mahrumlikda bu eshikdan qadam qo'yadi. Illo, bu hikmat tunu kun yodimizni tark etmagaykim, shundagina gunohga qo'l urishdan o'zni saqlagaymiz. Qazoyi muhaqqaq - osiy bandalar uchun azobu uqubatlar koni bo'lsa, iymoni butun, tangri yo'lidan tonmagan, tirikligida bandasiga yuklangan qiyomat qarzini ado etgan, ibodatlarini bajo keltirgan, sirli marosimlarni kanda qilmagan - parvardigor marhamatiga noil bo'lgan, xayrli ishlarga bosh qo'shgan mo'minga esa osoyish-oro'yish lahzalaridir. Xudojo'y, taqvodor katolik uchun, dinu e'tiqodda sobit inson uchun o'lim vahshati begonadir. Buyuk ingliz adibi Addisonning o'lim to'shagida yotgan chog'ida badaxloq yosh graf Uorvikka odam yuborganini va bu gunohkorning kelib, tangrining chin nasroniy bandasi o'z ajalini qay tariqa qarshi olayotganini ko'rib qo'yishga imkon tug'dirganini bir eslang. Ha, faqat xudojo'y, e'tiqodli katolikkina chin yurakdan shunday xitob qilmog'i mumkin:

Ajal! Qani nishtaring sening?

Do'zax! Qani zafaring sening?

Bu va'zning har bir so'zi unga qarata aytilgan edi. Tangrining qahru g'azabi uning razil, pinhona kufru gunohlarini nishonga olgan edi. Voizning pichog'i uning fosh bo'layotgan vijdonining tub-tublariga qadalar va u o'z qalbining gunohlar maddalab ketgan fasod uyasiga aylanganini his etdi. Yo rabbim, voiz haq! Tangri fursati yetdi. Ungurga tushib ketgan hayvonday, uning ruhi razolat botqog'iga botib qoldi, biroq maloik tortgan sur tovushi uni zalolat zulmatidan yorugqa chorladi. Farishta keltirgan Ro'zi mahshar haqidagi vahiy bir lahzayoq uning fe'lidagi kalondimog' xotirjamlikni barbod qildi. Oxirat kuni vahimasi ongiga to'fonday ko'chdi. Va kufru gunohlar, ko'zlarida shahvat olovi yongan bu fohishalar to'fonda misoli jonsarak sichqonlarday chiyillashib, tum-taraqay bo'lib ketdi.

U uyiga qaytarkan maydonni kesib o'tdi, qizib ketgan quloqlariga ayolning qo'ng'iroqday kulgisi chalindi. Bu yuvvosh, sho'x kulgi uning yuragini surning tovushidan-da battarroq sarosimaga soldi; u boshini ko'tarib qarashga jur'at etolmadi, yuzini chetga burdi va uning yonidan o'tayotib, tarvaqaylab ketgan butazorning soyasiga ko'z qirini tashladi. Uning iztirobda ezilgan yuragidan toshgan uyat hissi butun vujudini qamrab oldi. Ko'z oldida Emmaning qiyofasi jonlandi va qizning g'oyibona qiyo boshqishi yuragidan toshgan oriyat to'lqinini battar kuchaytirdi. Uning tiyiqsiz o'y-xayollarida Emma o'zning nechog'li toptalganini, bokiraligi naqadar tahqirlanganini bilarmikin! Shumidi yoshlikda bergan ko'ngil deganlari! Yigitlik sha'ni qani? Poyeziya havasi-chi? Tubanlikka tushgan damlarining jirkanch tafsilotlari o'zining badbo'y havosi bilan nafasini bo'g'a boshladi. Bir dasta, qorakuya surkalib bulg'angan, kamin panjarasining tagiga yashirib yuradigan behayo suratlariga soatlab oshkora yutoqib termilar, ham o'y-xayollari, ham nomatlub harakati bilan gunohga yo'l qo'yar edi; tushiga nuqul maymunisifat maxluqlar kirardi; qontalash ko'zlari chaqchaygan ayollar xayolidan ketmas, hirsu havasini oshkora ifodalagan uzundan-uzoq qabih xatlar yozar, ularni pinjida yashirib olib chiqib kun bo'yi izg'ir, ba'zan o't-o'lanlar orasiga tashlasa, ba'zida biror-bir eshik tirqishigami, devor kavagigami qistirib ketar, birorta qizning ko'zi tushsa olib jimgina o'qiydi, deb xayol qilardi.

Naqadar pastkashlik! Nahot shular rost bo'lsa, nahot shu qilg'iliklarini u qilgan bo'lsa? Miyasida chuvalashgan bu uyatli xotiralardan manglayiga sovuq ter tepchidi.

Uyat azobi biroz bosilgach, u cho'kib qolgan ruhini ko'tarishga urindi. Tangri ham, Bibi Mariyam ham undan juda olisda. Tangri behad ulug' va shafqatsiz, Bibi Mariyam esa o'ta bokira va benuqson. Biroq u ko'z oldiga keltirdi: Emma bilan bepoyon dalada yonma-yon turishibdi va u itoatkorona, ko'zlarida yosh bilan egilib, qizning tirsagiga tushgan yengini o'payotir.

Bepoyon dalada, mayin shaffof shom osmoni ostida, bulutlar nim ko'kimtir samo dengizi bo'ylab g'arbga tomon ohista suzib ketayotgan bir pallada ular - tangrining yo'ldan ozgan bolalari yonma-yon turishibdi. Ular o'z gunohlari bilan tangri g'azabini qo'zg'ashdi, garchi bu gunohlar, yaratgan egamning ikki bolasiniki bo'lsa-da. Biroq ular qilgan gunoh "husni jamolida samoviy sehr mujassam, chiroyi ko'zga xatarli, ammo timsolih" tong yulduziga monand, yorqin va tarovatli" Bibi Mariyamni g'azablantirmadi. Ilohaning unga tikilgan ko'zlari qahrsiz va ta'na-dashnomsiz qarab turardi. U ikkalasining qo'llarini qovushtiradi va ularning yuraklariga murojaat etib deydi:

«Stiven va Emma, bir-biringizning qo'llaringdan ushlanglar, samoda ayni osuda shom pallasi. Sizlar yo'ldan adashdinglar, lekin siz - mening bolalarimsiz, axir. Mana, o'zga yurakka muhabbat rishtasi bilan bog'langan yurak. Qo'l ushlashing, mening aziz bolalarim, siz birgalikda baxtli bo'lasiz va yuraklaringiz bir-birini sevajak.

Cherkov sahni panjarali parda tirqishidan sochilib turgan so'lg'in alvon nurga chulg'angan, parda bilan deraza romining torgina oralig'idan misoli nayzaday sanchilgan xira yorug' nur mehrobdagi shamdonlarning bo'rttirib ishlangan, farishtalarning jangu jadallarda urinib, siri ko'chgan aslahalariday xira yiltillab turgan hoshiyalarida aks etadi.

Cherkovga, bog'ga, kollejga yomg'ir quyib yog'ayotir. Yomg'ir sassiz-sadosiz, tinimsiz quyadi. Suv tobora ko'tariladi, o't-o'lanni, butalarni bosadi, uylarni qishloqlarni g'arq qiladi, haykallarni va tog' cho'qqilarini qoplaydi. Jami tirik jon borki, sassiz-sadosiz mahv bo'ladi: qushlar, odamlar, fillar, cho'chqalar, bolalar cho'kib ketadi; barham topayotgan bani bashar vayronalari orasida jasadlar qalqib-bo'kib suzib yuradi. Qirq kechayu qirq kunduz, toki yer yuzi suv ostida qolguncha, yomg'ir yog'adi.

Axir, shunday bo'lishi mumkin-ku. Nega bo'lmas ekan?

«Jahannam qa'ri tobora kengaydi va o'z komini behad katta ochdi". Bu so'zlar, mening qadrton ahli Iso birodarlarim, payg'ambar Isha'yo kitobidan, beshinchi bob, o'n to'rtinchi oyat.

Voiz to'ning ichki cho'ntagidan zanjirsiz soatini chiqardi va unga jimgina qarab oldi, keyin uni ehtiyotlab yoniga, stolga qo'ydi.

U bir maromda gapira boshladi:

«Ma'lumingizkim, mening qadrton birodarlarim, Odam Ato va Momo Havo bizning ilk ajdodlarimiz va yodingizdakim, ularni tangri yaratgan, ular Iblis va uning qutqusi bilan isyon ko'targan farishtalar qulagach, samodagi bo'sh qolgan o'rinni band etishgan. Iblis, bizga ma'lum, tong o'g'li, yorqin va qudratli farishta bo'lgan, biroq baribir u halokatga yuz tutdi. U quladi va u bilan birga samo lashkarining uchdan bir qismi mahv bo'ldi, o'zining isyon ko'targan farishtalari bilan u do'zaxga tashlandi. Uning qanday gunohga yo'l qo'ygani bizga qorong'u. Aqid ulamolari ta'kidlaydilar, bu gunoh takabburlikdandir, non serviam - itoat etmayman, degan oniy kufri o'y-niyatdandir. U bir lahza kufru shubhaga berilib, parvardigori olamning ulug'ligiga shak keltirgan va tangri uni samodan olib, jahannam qa'riga abadul-abadga uloqtirdi!

Shunda tangri Odam Ato va Momo Havoni yaratdi va ularni Damashq vodiysidagi Adanga, g'aroyib, nurafshon, turli ranglar barq urgan, ming xil ziynatli o't-o'lanlarga to'lib - toshgan bog'ga joyladi. Hosildor zamin ularga o'z ne'matlarini in'om etdi; parrandayu darrandalar ularning tasarrufida bo'ldi, ularga itoatda bo'ldi. Bizning tanimizga meros bo'lib o'tgan dardu sitamlar b'kasalliklar, muhtojligu o'lim Odam Ato va Momo Havoga begona edi. Quadratda tengsiz parvardigori olam o'z ilki-imkonida neki bo'lsa barchasini ularga muhayyo qilgan edi. Biroq tangri ularga bir yagona shart qo'ydi b'so'ziga itoat etmoqni amr etdi. Ular taqiqlangan daraxt mevasini yeb qo'ymasliklari lozim edi.

Afsuslar bo'lsinkim, mening qadrton birodarlarim, ular ham tubanlikka yuz tutdilar. Bir paytlar nurday balqigan farishta, subhi sodiq o'g'lioni, oqibatda esa makkor yov b'Iblis jami jondorlar ichida eng g'oddori bo'lmish ilon qiyofasida ularga namoyon bo'ldi. Iblis ulardan suqlanardi. Ko'shki samodan qulagan bu sarkardai shayotin xoki turobdan yaratilgan odamning bir paytlar o'zi ega bo'lib, so'ng kufru gunohi bois mahrum etilgan imkonlarga ega bo'lishini zinhor-bazinhor hazm eta olmasdi. U Momo Havoga, jinsi ojizaga yaqin keldi va qulog'iga shirin so'zlari bilan zahru zaqqumini quydi, ya'ni va'da qildikim, - oh, kufrona ahdu paymon! b'magar U bilan Odam Ato taqiq etilgan mevadan tatib ko'rsalar, ular ham yaratganning o'zi kabi, ya'ni tangri sifatini kasb etajaklar. Momo Havo olmaga og'iz soldi va uni Odam Atoga ham uzatdiki, Odam Atoda Momo Havoning qo'lini qaytarmoqqa loyiq jur'at yetmadi. Iblisning zahri zaqqum suyaksiz tili o'z korini qildi. Ular mahv bo'ldilar.

Va shu chog' bog'da tangrining amri yangrab, o'zi yaratganni, odamni so'roqqa tortdi. Va Mikoil, samo lashkari sarkardasi qo'lida olov shamshir bilan jinoyatkor juft qoshida hoziru nozir bo'ldi va ularni jannatdan olamga, kasalliklaru muhtojliklar, shafqatsizligu

ranj-alamlar, mashaqqatu mahrumliklar olamiga haydab soldiki, minbad ular rizq-ro'zini peshona teri bilan topgaylar. Hatto ana shunda ham tangri mehr-muruvvatini darig' tutmadi! U bizning bechora gunohkor ajdodlarimiz - Odamoto va Momohavoga shafqat ko'rsatdi va va'da qildiki, vaqt- soati yetgan pallada samodan yer sari ularni tag'in tangri farzandlari, samo taxti vorislari martabasiga ko'targuvchi zotni safarbar etajak; va tangrining yolg'iz o'g'li, muqaddas uchlikdagi ikkinchi zot, boqiy so'z gunohkor bandaning xaloskori bo'lajak.

U keldi. U bokira Bibi Maryamdan, ona-xudodan tug'ildi. U Yahudiyada, vayrona bir kulbada tavallud topdi va o'ttiz yoshga kirguncha, vaqt-soati kelgunga qadar duradgorlik qilib qanoat bilan yashadi. Fursati yetib, odamlarga mehr-muhabbati to'lib-toshgan palla ularga tangri shohligining Xushxabarini yetkazmoqqa bel bog'ladi.

Xo'sh, uning so'ziga quloq tutishdimi? Ha, quloq tutishdi, xolos, biroq uqishmadi. Misoli bir jinoyatchi kimsa qatori uni tutib olishdi va bandi etishdi, telbani masxaralaganday tahqirlashdi, uning o'rniga isyonchi va qotil kimsani afu etishni lozim topishdi, taniga besh ming bor kaltak urishdi, boshiga tikanli chambarni qo'ndirib qo'yishdi; yahudiya avomi va rim askarlari ko'cha-ko'ylardan uni sudrab o'tishdi, egnidagi kiyimini yulib olishib, o'zini xochga mixlashdi, qovurg'asi orasiga nayza sanchib teshishdi va tangrimizning yarador tanidan qon suv bilan qo'shilib oqdi.

Biroq shunday musibatli, mislsiz azob-uqubatli damlarda ham mehribon xaloskorimiz odamzod ahvoliga kuyundi. Va o'sha joyda, Go'lgotada muqaddas katolik cherkovini tayin etdi. Cherkovni u abadiy qoyalar ustida tikladi va va'da qildiki, agar odamlar uning cherkovi pand-nasihatlariga quloq osishsa boqiy hayotga muyassar bo'lajaklar, ammo ularni deya chekilgan shuncha ranju alam, mehnatu mashaqqatlardan keyin ham o'zlarining qusur va illatlaridan voz kecholmasalar - ularning yoziq'i mangu azob: jahannam bo'lajak.

Ruhoniyning ovozi tindi. U jim qoldi, kaftlarini qovushtirdi, keyin ularni yoydi. Va yana gapira boshladi:

- Endi, imkonimiz darajasida bir daqiqa gunohkor bandalarni abadiy jazoga mustahiq etmoq uchun qahrangan tangri hukmi-qaroridan yaralmish bu qiynoqlar makonini ko'z oldimizga keltirib ko'raylik. Do'zax - bu tor, qop-qorong'u badbo'y zindon, alanga va tutun qoplagan iblis va gunohkor ruhlar makoni. Tangri bu zindonni uning qonunlariga bo'ysunmoqni ravo ko'rmaganlarga munosib jazo bo'lsin, deya tor qilib yaratgan. Bu dunyoda esa bechora mahkumda, juda bo'lmaganda, qimirlash imkoni bor, garchi u kameraning to'rt devori ichida yoki qamoqxona hovlisida bo'lsa-da. Do'zaxda butkul bo'lakcha. Do'zaxda mahkumlar chunonam ko'pki, ular dahshatli zindon qa'rida bir-birlariga qapishib yotishadi, jahannam devorlarining qalinligi ayrim joylarda to'rt ming milgacha keladi, mahkumlar chunonam zich qalashgan va shu qadar nochor ahvoldaki, ulug' rahnamo Anselm bu haqdagi kitobida zikr etishicha, ular hatto ko'zlarini kemirayotgan qurtlarni olib tashlash uchun qo'llarini qimirlata olishmaydi.

Mahkumlar qorong'uda qalashib yotishadi. Tag'in shuni unitmanglarki, do'zax olovi yoritmaydi, yorug'lik taratmaydi. Xuddi tangri irodasi bilan Bobil o'chog'i olovi haroratini yo'qotib, yorug'ini saqlaganiday, do'zax olovi, tangri irodasi bilan, haroratini saqlab yorug'ini yo'qotadi. Bu - qorong'ulikning, qora alanga va qora tutunning hamda olovlangan oltingugurtning quturib buriqsigan mangu to'foniki, qalashib yotgan jasadlar bir yutum havodan ham mosuvodirlar. Fir'avnlr zaminini tangri duchor etgan jamiki jazolar ichida eng dahshatli qorong'ulikdir. Uch kun emas, balki azalu abad davom etajak do'zaxning zimiston tunini nimaga qiyoslash mumkin? Bu tor qorong'u zindon azobi chidab bo'lmas qo'lansa hiddan battar kuchayadi.

Zikr etilganidek, yer yuzining jamiki axlati, kir-chir va to'kindisi, misoli oqava xandakka yig'ilganday, shu makonga yig'iladiki, toki Ro'zi mahsharning ayovsiz olovi bu najas ko'lini o'zining poklantiruvchi otashida butkul yoqib yo'q qilmasin. Bu joyni yonayotgan oltingugurtning tog'day uyumi dahshatli badbo'y hidga to'ldiradi va mahkumlarning tanasi ham o'zidan shu zaharli hidni chiqaradiki, avliyo Bonaventura aytmoqchi, bu jasadlarning bittasiyoq butun bir olamni zaharlamoq uchun kifoyadir. Magar uzoq muddat harakatsiz holatga tushguday bo'lsa, sayyoramiz havosi, bu musaffo tabiat ham dimiqib, ayniydi. Shunday ekan, endi jahannam qo'lansasi qanaqaligini tasavvur qilavering! Lahadda yiring boylab balchiqqa aylanib yotgan, sasib irigan murdalarni ko'z oldingizga keltiring. Va tasavvur etingkim, bu murda olov o'ljasiga aylangusi, yonayotgan oltingugurtning mahv etguvchi alangasi komiga tortilgusi; va bungacha o'laksalar chor-atrofga nafasni bo'g'uvchi, ko'ngilni aynitguvchi qo'lansa hid tarqatib yotadi. Siz ana shu jirkanch manzarani - qo'lansa zimistonda qalashib yotgan son-sanoqsiz murdalarning badbo'y fasodi yig'ilgan ulkan o'rani tasavvur eting. Bularning barini xayolan ko'z oldingizga keltiring, shunda siz jahannam azobini qisman tasavvur eta olasiz.

Biroq bu qo'lansa hid, garchi nechog'li uqubatli bo'lmasin, mahkumlar duchor etilajak azoblarning dahshatli hali oldinda. Zero, olov bilan qiynash - buyuk azobdirki, zolim hukmdorlar o'z qo'l ostidagilarni ana shunday jazoga tortganlar. Barmog'ingizni sham alangasiga bir zum tutib ko'ring va o't bilan azoblash nimaligini shunda anglaysiz.

Bizning yerdagi olovimiz tangri tomonidan odam uchun, uning hayotini charog'on etish, mehnatu mashaqqatlarini yengillatishday ezgu niyatda yaratilgan, ammo jahannam olovi mutlaq o'zgacha xususiyatdadirki, bu olov tangri irodasi bilan tavbadan yuz o'girgan gunohkorlarga jazo o'laroq paydo etilgan. Bizning yerdagi olov yo'naltirilgan narsani tezda pishiradi, kuydiradi yo eritadi, zero, uning harorati yuqori. Va boz, odam bolasi tadbirkorligi bois olovning yonish jarayonini kuchsizlantiradigan yoki to'xtatib qo'yadigan kimyoviy vosita-usullarni ixtiro eta bildi. Ammo do'zaxdagi zaharli oltingugurt shundayin moddaki, u abadiy alangalanib, yonib yotish uchun yaralgan. Boz ustiga, bizning yerdagi olov yondirib yo'q qiladi, gurillab avj olib yongani sari tez so'nadi, lekin do'zax olovi yo'q qilmay, muttasil kuydiradi, garchi shiddatli alangalansa-da, hech qachon o'chmaydi, so'nmaydi.

Bizning yerdagi olov, uning alangasi nechog'li vahimali va shiddatli esa-da, doimo muayyan chegaraga ega, biroq jahannamning olov ko'li cheku chegarasiz, na qirg'og'i, na tag-tubi bor. Ma'lumingizkim, shaytonning o'zi qaysidir jangchi savoliga javob qilarkan, magar butun bir tog' qoyasini qo'porib do'zax oloviga otsalar u misoli mum tomchisiday lahzada yonib ketajagini aytgan. Va bu ajdarho-olov mahkumlar tanini sirt dangina kuydirmaydi! Har qaysi mahkum ruh o'zi bir do'zaxga aylanadi va uning botinini yonayotgan o'choqqa mengzagulik. O', bu badbaxt gunohkorlar qismati naqadar ayanchli! Tomirlarida qon qaynaydi, biqirlab oqadi, miya bosh suyagi ichida eriydi, yurak o't oladi, ko'krak qafasida yoriladi; ichki a'zolar olovlangan laxcha go'shtga, ko'zlar, bu nozik to'qima, qip-qizil soqqaday cho'g'ga aylanadi.

Biroq bayon etayotganim - do'zax olovining qahr-u zapti-yu uzluksizligi tangri irodasini ado etguvchi qurol bo'lmish jon va tanlarni azoblaguvchi cheksiz qudratga teng kelolmaydi. Tangri g'azabidan bino bo'lgan bu olov o'z-o'zicha emas, balki ilohiy qasos quroli o'laroq harakatlanadi. Cho'qintirilgan suv ruh va badanni vobasta poklagani misol qasoskor olov jonni tana bilan birga azoblaydi. Tanadagi har bir a'zo uqubat tortadi va ular bilan yakbora ruh-da qiynoqqa giriftordir. Ko'z zim-ziyo qorong'ulikdan ko'rmay qoladi, burunb ʻʻjirkanch hiddan, quloqʻʻʻohu-faryoddan, sezgilarʻʻʻcho'g'-mixlar va temir xivichlar zarbidan, olovning ayovsiz tillaridan zir qaqshaydi. Va bundayin jismoniy qiynoqlar ichida o'lmas ruh alanganing behisob tillari vositasida abadiy qiynoqqa solinadi.

Yana shuni unutmangizkim, jahannam zindonidagi ushbu qiynoqlar mahkumlarning bir-birlariga baqamti yotgani bois zo'raygandan-zo'rayadi. Yerda ziyon-zahmatli unsur yaqin bo'lsa xavflidir, zero, hatto giyohlar ham, savqitabiiy tarzda, o'zlari uchun halokatli, xatarnok nimarsalardan chetroqda ko'karadi. Do'zaxda-chi, do'zaxda bu qonun amal qilmaydi, oila, vatan, birodarlik, qon-qardoshlik aloqalari kabi tushunchalar yo'q. Nola-yu fig'on qilayotgan, faryod chekayotgan gunohkorlarning qalashib yotishi ularning azobu uqubatlarini dubora kuchaytiradi. Jamiki insoniy tuyg'ular unitiladi, mahkumlarning ohu zorlari jahannamning eng cheka burjlarigacha borib yetadi. Ularning og'zidan tangriga qarshi koyinishlar, tevaragidagi o'zi kabi gunohkorlarga g'azabnok so'zlar, kufrga bosh qo'shgan sheriklariga la'natlar yog'iladi. Qadim zamonda shundayin qoida amal qilgan: padarkushni, otasiga qo'l ko'targan oqpadarni bir qopga xo'roz, maymun va ilonlar bilan qo'shib joylashib, qopning og'zini tikishib dengizga uloqtirishgan.

Bizga o'ta shafqatsizlikday tuyuluvchi bu qoida mohiyatiga ko'ra, jinoyatchiga alamzada, vahshiy jonzotlarni qo'shib, biryo'la ulardan shu zayl qasos olingan. Biroq tilsiz-jag'siz jonzotlarning jon talvasasi jahannamda qurib qaqragan dahanlardan, kuyib yonayotgan bo'g'izlardan otilayotgan achchiq alamlarga qiyosan hechdir. Gunohkor bandalar do'zaxda azob chekayotganlar orasida o'zlarini gunohga boshlagan, shunga ko'mak ko'rsatganlarni, buzuq o'y-xayollar, badaxloq qiliqlarga chorlagan so'zlarni miyasiga quyganlarni, o'zlarini kufrga yo'llaganlarni taniydilar va ularga jon-jahdlari bilan qahru g'azablarini sochadilar, haqoratu la'natlarga ko'madilar.

Va nihoyat, gunohkor ruhlar B"yo'ldan ozdiruvchilar va yo'ldan ozganlar B"jinlar bilan birga nechog'li dahshatli qiynoqlarga duchor bo'lishini-da bir tasavvur eting. Jinlar mahkumlarni dubora qiynoqqa soladi: ham o'zlarining ishtiroki va ham ta'na-yu dashnomlari bilan. Biz jinlarning naqadar ayanchli ekanini aqlga sig'dirolmaymiz. Bir bor jinni ko'rgan avliyo Yekaterina Siyenskaya: bu dahshatli maxluqqa tag'in ko'zim tushganidan ko'ra umrimning oxirigacha cho'g' ustida yalangoyoq yurganim ma'qul, deb yozgan. Nega imonli hayotdan, ezgu amallardan yuz burding? Nega gunohlardan saqlanmading? Nega yaramaslar bilan tanishishdan qochmading? Nega buzuqliging va badaxloqligingga qarshi kurashmading? Nega ruhoniy rahnamoying pand-nasihati quloq osmading? Nega bir marta, ikki marta, uch, to'rt va yuzinchi marta gunohga yo'l qo'yib ham razil amallaring uchun tavba qilmading va afsus-nadomatlarini kutgan, seni gunohlardan xalos etmoqchi bo'lgan egamdan shafqat tilamading? Ammo endi tavba-tazarruning vaqti o'tdi. Vaqt bor, vaqt bor edi, biroq endi vaqt yo'q. Pinhona gunoh qilmoqqa, takabburligun yalqovlikka, g'ayriaxloqiy ishratu halovatlarga berilmoqqa, tananing hayvoniy mayllariga bo'ysunmoqqa, o'rmon jondorlari, yo'q, jondorlardan-da battar kun kechirmoqqa vaqt bor edi! Zero, ularda, nari borsa, fahm yo'qki, to'g'ri yo'lga boshlasa.

Vaqt bor edi, ammo endi yo'q. Tangri sen bilan behisob ovozlarda gaplashdi, turli yo'sinlarda senga uqtirdi, biroq sen eshitishni xohlamading. Sen takabburligingdan qolmading, yuragingdagi keku adovatdan kecholmading, ezgu tuyg'ularga yuragingdan hatto joy topolmading, muqaddas cherkov davatlariga quloq osmading, urf-odatlariga itoat etmading, nomussiz sheriklaringdan ajralmading, gumonlardan qutulmading. Qiynog'u qistovga olguvchi shaytanat va'zi shunaqa: tahqirromuz va ta'na-dashnomlarga, adovatu, nafratga to'la. Ha, aynan nafratga to'la, zero, ularning o'zlari gunoh qilishgan, ya'ni faqat farishta tabiatliklariga xos gunohga - aql isyoniga yo'l qo'yishgan esa-da, ana shu jirkanch jinlar ham nochor bandaning muqaddas qasrini tahqirlagan, xo'rlagan, o'zini-o'zi toptagan, oru nomusdan ayirgan gunohlaridan nafratlanadi, jirkanadi.

O', mening aziz ahli Iso inilarim, bizni bundayin tahqirromuz va'zni tinglamoqdan asrasin! Hech birimizni bundayin mudhish qismatga ro'baru etmasin. Men tangriga iltijolar qilib, ayni damda ibodatxonada hozir bo'lganlarning jonlari oxirgi dahshatli intiqom kuni badbaxtlar qatorida turmasligini o'tinaman. Ulug' hakam qahru g'azabiga uchrashdan, "Mendan nari ketingiz, la'natilar, iblis va farishtalariga hozirlangan abadiy olovda yoning!", deya amr etilguvchi shafqatsiz hukmi qay birimizga-da bo'lmasin o'qilishidan asrasin!

U cherkovdan chiqdi; oyoqlari darmonsizlanib chalishdi; boshining terisi, go'yo arvohning barmoqlari tekkanday junjikdi. U zinadan ko'tarilib dahlizga kirdi, devorlarda qatlg'a hukm etilgan mahbuslar - boshsiz, qon jo'shagan, shaklsiz yovuz kimsalarday palto va makintoshlar osilgan edi. Qadam tashlagani sayin uni qo'rquv battar chulg'ab olardi: u allaqachon o'lgan, joni tanini tark etgan va shitob bilan tubsiz chohga tushib borayotir.

Oyog'i ostida yer sirg'aladi va u partaga og'ir cho'kdi, qarab o'tirmay qandaydir kitobni ochib, muk tushdi. Har bir so'z - u haqda. Ha, shunday. Tangri B"milsiz qudratli. Tangri uni shu daqiqada, hoziroq, partada o'tirgan joyida, nima bo'layotganini anglab ulgirmayoq huzuriga chaqirib olishi mumkin. Tangri uni chaqirdi ham. Qanday? Shunchalik tezmi? Uning vujudi kichraydi, go'yo alanganing ochofat tillari yaqinlashganini his etganday, go'yo olov bo'roni kuydirgan bargday bujmaydi. U o'ldi. Ha. Uni sud qilishayotir. Olov seli ko'tarildi va uning tanini kuydirdi! Tag'in olov seli, tag'in. Miyasi qiziy boshladi. Yana sel yopirildi. Miyasi qaynayapti, tandirday qizigan bosh suyagining ichida biqirayapti. Alanga tili bosh suyagidan olovli halqa bo'lib otilib chiqdi va minglab ovozlarda chinqirdi:

- Do'zax! do'zax! do'zax! do'zax!

Uning yonida ovozlari eshitildi:

- U do'zax haqida gapirdi.

- Nima bo'пти? Sizlarga hammasini uqtirdimi?

- Uqtirganda qandoq. Qo'rquvdan o'lib qolay dedik.

- Sizlarga faqat shunday qilish kerak. Tez-tez qo'rqitib nasihat qilib turilsa, shunda, ehtimol, yaxshi o'qirsizlar.

Madori qurib, u partaning suyanchig'iga tayandi. U o'lmadi. Tangri unga bu safar ham shafqat qildi. U hali ham har doimgiday maktabda. Deraza oldida ezib yog'ayotgan yomg'irga qarab mister Teyt va Vinsent Kuron turishibdi: gaplashayapti, hazillashishayapti, boshlarini silkishayapti.

- Sayr qilolsang edi. Men oshnam bilan Malaxaydga velosipedda sayr qilishga kelishgandim. Biroq yo'llar tizza bo'yi loy bo'lsa kerak.

- Ehtimol, hali sayr qilishga ulgirarsizlar, ser.

Tanish ovozlari, odatdagi gap-so'zlar, ovozlari tinganda sinfga cho'kkan jimjitlik, ovqatlanayotgan to'daning xotirjam chalpillatib chaynashi - bular bari uning ezilgan ruhiga taskin berardi.

Hali vaqt bor. O', Bibi Maryam, gunohkorlar rahnamosi, o'zing qo'lla! O', bokira ayol, ajal girdobidan o'zing asra!

Ingliz tili darsi tarixiy mavzudagi suhbat bilan boshlandi. Qirollar, erkatoylar, firibgarlar, yepiskoplar, misoli sharpasiz arvohlarday, ismlar og'ushida o'tishdi. Ular bari o'lib ketishgan va hammasi hukm etilgan. Olamga ega bo'lmoqdan odamga ne foyda, modomiki u o'z jonini boy bergan ekan? Nihoyat u tushunib yetdi: odamzod hayoti uning tevaragida misoli vodiyyay yastanib yotibdi, unda odam-chumolilar mehnat qilishadi, o'lganlari esa do'ppaygan qabrlar tagida. Yonidagi bolaning tirsagi unga

tegib ketdi va u yuragida tebranish sodir bo'lganini his etganday bo'ldi. O'qituvchining savoliga javob bera turib, o'zining itoatkorona xotirjam ovozi eshitdi.

Uning ruhi tobora tazarru holatiga uyg'unlashib borar, azob-uqubat dahshatini eslashga ortiq madori qolmagan va itoatkorona duoga yuz burgan edi. Ha, u oqlanajak: u chin dildan tavba qiladi va afu etiladi va shunda u yoqda, boshi ustida, samoda uning o'z o'tmishini - gunohlarini qanday yuvganini ko'rishadi. Umr bo'yi, har bir soati tavba-tazarruda o'tadi! Faqat fursat bering, fursat! - Hammasi uchun, tangrim! Hamma-hammasi uchun!

Kimdir eshikni qiya ochdi va cherkovda tavba marosimi boshlanib ketganini aytdi. To'rt nafar bola sinfdan chiqishdi va u boshqalar ham dahlizdan yurib o'tishganini eshitdi. Yuragini yengil esgan shabadaday bilinar-bilinmas salqin chayqab o'tganday bo'ldi. Biroq iztirob ichida shunday tuyg'uni his etdiki, go'yo yuragiga qulog'ini qo'ygan, yuragi esa siqilayotir, tobora sekin urayotir, to'xtab qolayotganday, tomirlari titrayotir.

Najot yo'q. U tavba qilmog'i kerak, hammasini - nima qilgani-yu nimalarni o'ylaganini, barcha gunohlarini aytib bermog'i zarur. Biroq qanday aytadi? Qanday?

- Taqsir, men...

Tavba-tazarru! Bu fikr sovuq yaltiragan xanjarday uning kuchsiz badaniga qadaldi. Biroq faqat bu yerdamas, maktab cherkovidamas. U hammasi uchun, har bir gunoh qilmishi va kufrona o'y-xayollari uchun chin dildan tavba qiladi, faqat bu yerda - o'rtoqlari oldidamas. Bu yerdan nariroqda, biror-bir kishibilmas joyda o'zining benomusligini fosh etadi; va u tangriga itoatkorona duo o'qib, maktab cherkovida tavba qilishga jur'ati yetmayotgani bois undan g'azablanmasligini o'tindi.

Vaqt esa o'tib borardi.

U yana cherkovda birinchi qatorda o'tiribdi. Deraza ortida kunduzning yorug'i sekin so'ndi, oftob urgan qizil parda orasidan ko'ringan quyosh so'nggi kun - hammaning ruhi chaqirib olinadigan Ro'zi Mahshar kunining quyoshiday tuyuldi.

- "Ko'zingdan judo bo'ldim", bu so'zlar, mening ahli Iso inilarim, hazrati Dovudning Sanolar kitobi 30-sano 23-oyatdan. Ota, o'g'il va muqaddas ruh nomi ila. Omin.

Ruhoniy xotirjam, yoqimli ovozda gapirdi. Uning chehrasi ochiq edi, u qo'llarini ko'ksiga qo'ydi, barmoqlarining uchlarini beozor jipslashtirdi va bu mo'jizgina omonat katakka o'xshardi.

- Bugun ertalab siz bilan do'zax haqida suhbatlashdik, uni tasavvur qilishga yoxud jamoamizning avliyo asoschisi o'zining kitobida aytganidek, ruhiy mashqlar qilishga, uning o'rnini belgilashga urinib ko'rdik. Boshqacha aytganda, biz ongimizning ehtirosarga moyil tomoni bilan, aql-shuurimiz orqali bu dahshatli zindonni va unga tushganlar duchor bo'lishadigan mislsiz jismoniy azob-uqubatlarni tasavvur etishga harakat qildik.

Yodingizda saqlang, gunoh - ikki karra jinoyatdir. Bir tarafdin, bu gunohga moyil tabiatimizning chirkin mayllariga, har qanday hayvoniy xohish-istak va iflosliklarga razilona erk berish bo'lsa, boshqa tarafdin, pok tiyatimiz ovoziga, o'zimizda mavjud jamiki sof va bokira tuyg'ular sasiga quloq osmaslikdirki, buning o'zi aziz yaratguvchiga bo'yin bermaslik bilan barobar. Shu bois, kechirilmas gunoh jahannamda ikki xil: jismoniy va ruhiy jazolarga tortiladi.

Shunday qilib, ruhiy azoblar ichida eng dahshatlisi - mahrumlik azobidir. U shu qadar ulug'ki, qolgan barcha uqubatlardan ustun. Cherkovning buyuk muallimi farishtasifat olim avliyo Foma deydiki, eng og'ir la'nat - odam fahm-farosatining ilohiy nurdan mosuvo bo'lmog'i, zero, bundayin kimsaning o'y-xayollari tangri marhamatidan tiyiladi. Yodingizda saqlangki, tangri - cheksiz marhamatli mavjudot va shu bois undan mahrum bo'lmoq adoqsiz uqubatdir. Bu foniy dunyoda ana shunday mahrumlikning oqibatlarini biz aniq tasavvur eta olmaymiz, biroq do'zaxga hukm etilganlar chekajak azob-uqubatlari poyonigacha o'zlarining nimadan mahrum bo'lishganlarini anglab yetadilar va biladilarki, bu mahrumlikning sababkorlari faqat ularning o'zlari.

Ajal yetgan lahzadayoq vujudning uzvlari ajraladi va shu lahza ruh tangri sari, o'zining mavjudlik makoniga yo'l oladi. Yodda tuting, mening aziz birodarlarim, bizning ruhimiz tangri bilan birlashmoqni qo'msaydi. Biz tangriga mansubmiz, tangri tufayli tirikmiz, tangriga tobemiz; daxlsiz unga tobemiz. Tangri har qaysi insoniy ruhni ilohiy muhabbat bilan suyadi va har qaysi insoniy ruh ana shu muhabbatda barhayotdir. Boshqacha bo'lishi ham mumkinmi, axir? Har bir nafasimiz, har bir fikrimiz, tirikligimizning har bir lahzasi tangrining bitmas-tuganmas marhamatidan. Modomiki, onaning go'dagidan ayrilib qolishi, kishining oilasidan, go'shasidan ajralishi, birodarlik iplarining uzilishi naqadar og'ir judolik ekan, fikr qiling, bechora ruhning o'zini yo'qdan bor etgan, tirikligini ta'minlagan, uni cheksiz muhabbat bilan sevgan yaratuvchisidan ayri tushmog'i qanchalar azobli ekanini. Xullas, oliy marhamatdan mosuvo qolmoq, tangridan ayri tushmoq, bu judolik azobini chekmoq, boz ustiga, ayriliqning abadiyligini tuymoq buyuk azobdirki, bundayin mahrumlik uqubatini faqat yaratilmish ruhgina - poyena damni - ko'tarishga qobil.

Do'zaxda mahkumlar ruhini qiynoqqa soladigan ikkinchi jazo - vijdon azobidir. Chirigan o'lik tanada qurt paydo bo'lganidayin, gunohning maddalab ketishi oqibatida gunohkorlarning ruhida bitmas-tuganmas azob, vijdon azobi yoxud papa Innokentiy III ta'biri bilan aytganda, uch nishtarli gazanda paydo bo'ladi. Bu berahm jondor jonga sanchadigan birinchi nishtar - tiriklikda o'tgan ko'ngilxushliklar xotirasi.

O', bu qandayin dahshatli xotira! Olov dengizining yutoqqan to'lqinida qovrilayotgan qirol o'z toj-taxtining dabdabali ulug'vorligini eslaydi; aqlli, biroq axloqi buzuq odam - kitoblari va asbob-anjomlarini; san'atni qadrlaguvchi - suratlarini, haykallar va boshqa qimmatbaho buyumlarni; shinam dasturxonlarga o'ch kimsa - to'kin-chochin bazmlarni, mazali taomlarni va o'tkir vinolarni; qurumsoq kimsa esa tilla solingan sandiqlarini; bosqinchi - zo'ravonlik orqasidan orttirgan boylikni; alamzada, qasoskor, berahm qotillar - o'zlarining qonli qilmishlarini; ishratparastlar va kajraftorlar - nopok, fahshga botgan huzur-halovatlarni xotirlashadi. Ular buning barini eslashadi va o'zlarini ham, kufrona qilmishlarini ham la'natlashadi. Zero, jahannam olovida mangu yonishga mahkum etilganlarga o'tkinchi hoyu-havaslarining nechog'li arzimligi butkul ayon bo'ladi! Ular samo saodatini dunyo ermaklariga, bir hovuch temir-tersakka, vaqtinchalik dovrucqa, tana-yu tomirlarning bir necha daqiqalik oroyishiga almashganlarini anglashganda ranju alamlari, g'azabu nafratlari qaynab-toshadi! Ular cheksiz afsus-nadomatlar chekishadiki, ayni shu nadomatlar - vijdon qurtining ikkinchi, ya'ni gunohlar uchun kechikib, behuda chekilayotgan afsuslar nishtari. Ilohiy intiqom mahkumlarning aql-idroki muntazam tarzda gunohlariga qaratilmog'ini zarur deb hisoblaydi, boz ustiga, tangri, avliyo Avgustin urg'ulaganidek, ularga gunohni o'z nuqtai nazaricha anglatadi va mahkumlar ko'z oldida gunoh butun illatu zalolatlari bilan namoyon bo'ladi. Ular o'z gunohlarining jamiki qabihliklaridan ogoh bo'lishadi va nadomatlar chekishadiki, biroq endi juda kech. Va imkon borida harakat qilmaganlaridan qattiq o'kinishadi. Bu esa oxirgi, vijdon qurtining eng zaharli va berahm nishtaridir. Vijdon deydi: senda vaqting bor edi, imkonning bor edi, biroq tavba-tazarru qilmading. Ota-onang seni tavfiqli qilib tarbiyalashdi. Senga ko'mak uchun muqaddas in'omlar, tangri marhamati va gunohingni kechirish haqida yorliq berilgan edi.

Tangri xizmatkori yoningda edi, toki da'vat va qistovlar bilan seni haq yo'lga boshlasa, seni gunohlardan, ular qanchalik ko'p va



og'ir bo'lmasin, xalos etsaki, faqat sen badbaxt tavba qilsang, rahm-shafqat tilasang.

Yo'q. Sen buni xohlamading. Sen muqaddas cherkov xizmatkorlariga mensimay qarading, tavbadan yuz o'girding, gunoh botqog'iga botaverding. Tangri seni chorladi, ogoh etdi, o'zidan begona bo'lmaslikka da'vat etdi. O', bu qandayin sharmandalik, qandayin mudhish kulfat. Olam hoqoni senga - tuproqdan yaratib, tiriklik nafasini bergan bandasiga, uni sevishni, qonunlariga bo'ysunmoqni o'tindi. Yo'q! Sen buni xohlamading. Endi esa, agar sen yig'lay bilsang va jahannamni ko'z yoshlaringga cho'ktirsang-da, baribir bu nadomatlar okeani yerdagi hayoting chog'ida chin dildan afsus chekib to'kilgan bir tomchi yoshning bergan ko'magini yetkazolmaydi. Endi sen tavba-tazarru qilish uchun yerdagi hayotingning bir nafaslik vaqtiga zor-nolonsan. Befoyda. Vaqt o'tdi, abadul abadga kech qolding endi.

Jahannamda gunohkorlarning yuragini kemiradigan bu gazandaning uch tig'li nishtari ana shunaqa. Do'zax qiynog'ida mahkumlar o'zlariga, o'zlarining bemaza o'y-xayol bilan yo'l qo'yishgan qilmishlari-yu yo'ldan ozdirgan ahmoq sheriklariga tig' urishadi, hayotlarini barbod etgan shaytonlarga tig' urishadi, biroq endi befoyda, ular o'zlarini tahqirlyotgan abadiyat qarshisida tangriga isyon qiladilar va la'natlar yog'diradilarki, egamning rahm-shavqati va sabr-toqatini ular unutilgan, ammo uning hukmu hokimiyatidan qochib qutulolmadilar.

Mahkumlar jahannamda tortilajak navbatdagi ruhiy qiynoq - bu azob-uqubatlarning muqarrarligidir. Banda yerdagi hayoti mobaynida bir qancha yovuz ishlarga qo'l urishi mumkin, biroq zaharni zahar kesganidayin, bir yovuz qilmish boshqasiga xalal beradi va aks ta'sir ko'rsatadi. Jahannamda esa aksincha, bir azob boshqasiga xalal bermaydi, balki uni kuchaytiradi. Bu ham kam: bizning ruhiy xususiyatlarimiz tanamizdagi tuyg'ulardan ko'ra nisbatan mukammalki, shu bois ular chekadigan uqubatlar kuchli bo'ladi. Shu zayl, ruhning har bir xususiyati, his-tuyg'u kabi, o'ziga xos azobga duchor etiladi: tasavvurni vahimali qo'rquvlar bosadi, his etish qobiliyati - goh afsus-nadomat, goh g'azabga minadi, ong va aql - tashqi qorong'ulikdan ortiq dahshatli botiniy zulmatga botadi. Gunohkor ruhlar duchor bo'lgan achchiq alam, garchi kuchsiz bo'lsa-da, na makon va na zamonga bo'ysunadi, o'ldirib o'ldirmaydi, tinch ham qo'ymaydi. Bu mash'um holatni, magar gunohning butun qabihliklari-yu tangrining nafrati ayovsizligini anglanmas ekanmiz, tasavvur etishimiz mushkul.

Qiynoqlarning muqarrarligi qatori, bir qarashdan uning ziddiyat tuyuluvchi, keskinligi azobi ham mavjud. Do'zax - bu yomonlik jam bo'lgan joy, va sizga ayonki, markaz sari yaqinlashgan sayin keskinlik ortib boradi. Do'zaxdagi azob-uqubatlarni, bir bahyaga bo'lsin, hech qanday tashqi va qarshi turuvchi kuch kamaytira olmaydi. Hatto o'z-o'zicha yaxshilik hisoblangan narsa ham jahannamda yomonlikka aylanadi. Badbaxtlar uchun yerda taskin omili bo'lgan dardkashlik u yoqda tunganmas qiynoqqa aylanadi; oliy saodat hisoblanmish aql intilgan bilim u yoqda nodonlikdan ko'ra ortiqroq nafaratga loyiq topiladi; jamiki jonzotlar - tabiat podshosidan o'rmondagi arzimasi giyohgacha talpinadigan nur - u yoqda kuydiruvchi g'azab alangasiga duchor etadi.

Yerdagi hayotimizda bizning azob-uqubatlarimiz behad bardavom va haddan tashqari katta bo'lmaydi, zero, kishi tiriklikda ularni odatidan kelib chiqib unutiladi yoki chidash berolmay holdan toyadi va shunda bu azoblar tugab bitadi. Biroq do'zaxdagi azoblarga odatlanish mumkin emas, chunki ular keskinligi barobarida o'ta xilma-xildir: bir qiynoq boshqasidan alanga oladi va yonib gurkirayotgan olovga ulashib ketadi. Bu xilma-xil keskin azoblardan gunohkorlarning qanchalik tinka-madori qurimasin, buning oxiri bo'lmaydi, zero, gunohkor bandaning ruhi, azob-uqubatlari ortib borishi uchun bu badbaxt yomonlik chohida yotaveradi. Azoblarning muqarrarligi, qiynoqlarning keskinligi, uqubatlarning so'ngsiz almashib kelishi - tangri buyukligiga qilingan shakkoklikning qasosi, samo shohligining talabi ana shunday; mana, gunohkorlarni poklash yo'lida to'kilgan tangrining begunoh qo'zichog'i qoni ne oqibatlariga olib keladi.

Va do'zaxning barcha azoblari ichida eng og'ir azob - bu uning manguligidir. Mangulik! Naqadar qo'rquli, naqadar vahimali so'z! Mangulik! Inson ahli uning mohiyatiga yeta olarmikan? O'ylang: azoblar mangu! Magar do'zax azoblari dahshatli bo'lmagan taqdirda ham, baribir ular uzluksizki, zotan, ularga mangu davomiylik buyurilgan. Bu azoblar mangu, biroq ayni damda ular o'zining xilma-xilligida muqarrar, keskinligida chidab bo'lmasdir. Hasharot chaqqandagi og'riqning mangu davom etishi hatto aqlga sig'mas azob, deyish mumkin. Do'zax azobining manguligiga qanday chidash mumkin? Uzluksiz! Abadiy! Bir yilmas, yuz yilmas, mangu. Siz bu so'zning mohiyatini bir zum tasavvur qilib ko'ring. Albatta, dengiz qirg'og'ida qumloqni ko'p ko'rgansiz. Uning mayda qum zarralaridan tashkil topganini bilasiz. O'ynab o'tirgan bolaning qo'lidagi bir siqim qumdagi zarralar soniga yetib bo'lmaydi. Endi, millionlab mil baland, yerdan osmon qadar ko'tarilgan eniga millionlab milga cho'zilgan, qalinligi millionlab milga teng qum tog'ini ko'z oldingizga keltiring; behisob qum zarralarining mahobatli tog'ini tasavvur qiling va bu zarralarga o'rmonlardagi daraxtlar barglari sonini, behudud okeandagi suv tomchilarining sonini, qushlarning patlari sonini, baliqlar tangalari sonini, hayvonlar tuki sonini, havo bo'shlig'idagi atomlar sonini qo'shing va kichkina qushcha million yilda bir marta bu qumtoqqa uchib kelib, tumshug'ida bir dona qum zarrasini olib ketishini ham tasavvur eting.

Qushcha atigi bir kvadrat fut qumni tashib ketishi uchun necha million-milion asrlar o'tadi? Hammasini tashib ketguncha qancha asrlar kechadi? Bu aql bovar etmas vaqt mobaynida mangulikning bir lahzasi ham o'tib ulgirmagan bo'ladi. Bu billionlab va trillionlab yillar oxriga boribgina mangulik ibtidosi boshlanadi. Va agar bu qum tog'i yana paydo bo'lsa va yana qushcha uchib kelib uni zarralab tashisa va bu tog' osmondagi yulduzlar qadar, koinotdagi atomlar qadar, dengizdagi tomchilar qadar, daraxtlardagi barglar, qushlarning patlari-yu, baliqlarning tangalari, hayvonlarning tuki qadar yo'q bo'lib qayta paydo bo'lsa-yu, hatto shundan keyin ham, ya'ni son-sanoqsiz marta shunday bo'lgach ham, mangulikning bir daqiqasi hali o'tmagan bo'ladi, hatto shunda, shu qadar nihoyasiz vaqt mobaynida, nihoyasizligidan aqlimiz shoshadiki, mangulik endi boshlangan bo'ladi.

Bir avliyo (xotiram aldamsa, bizning ordenimiz asoschilaridan biri) do'zaxni ko'ra olish marhamatiga sazovor bo'lgan. Unga shunday tuyulganki, go'yo ulkan qorong'u dahlizda turibdi, bu yerdagi sukunatga faqat juda katta soatlarning chiqqillagani xalal beradi. Soatlar tinimsiz chiqqillaydi va avliyoga ular bir maromda: har doim hech qachon, har doim hech qachon, degan so'zlarini takrorlayotganday tuyuladi. Har doim do'zaxda bo'lmoq bor, hech qachon - samoda; har doim tangri jamolidan benasib bo'lmoq bor, hech qachon bu huzur-halovat nasib etmagay; har doim olovga muhtalo, qurtlarga va qizdirilgan sim chiviq'larga qurbon bo'lmoq bor, hech qachon ulardan qochib qutulib bo'lmas; har doim vijdon azobida qiynalmoq, xotiralar olovida kuymoq, zulmat va afsus-nadomatlardan bo'g'ilmoq bor, hech qachon ulardan xalos bo'lmoq yo'q; har doim o'zining qurbonlari chekayotgan uqubatlardan iblisona quvonch tuyayotgan razil jinlarni la'natlamoq va ulardan nafratlanmoq bor, hech qachon farahbaxsh ruhlar jamoliga bir qarash imkoni yo'q; har doim olov qa'rida yonib tangriga nola etmoq, bir lahzalik dam, so'ngsiz azoblardan bir zum nafasni rostlab olgudek hordiq so'rab iltijolar qilmoq bor, hech qachon kiprik qoqqulik fursatga tangri ijozatini olmoq yo'q; har doim azob chekmoq bor, hech qachon halovat topmoq yo'q; har doim la'natga duchor bo'lmoq bor, hech qachon xalos bo'lmoq yo'q; har doim, hech qachon! Har doim, hech qachon!

O', naqadar dahshatli jazo! Tunganmas azoblar manguligi, tunganmas tana va ruh uqubatlari - na yilt etgan umid uchquni, na bir

lahzalik tinim, faqat azoblar, keskinligining cheku chegarasi, xilma-xilligining hisobi yo'q, qurbonining ich-etini abadiy kemiradigan azoblar; ruhni kuydirib, tanani tilkalaydigan mangu alam, har bir lahzasi abadiy uqubat bo'lmish azob - og'ir gunohlar bilan qazo qilganga qudratli va adolatli tangrining rostlagan dahshatli jazosi bu.

Ha, adolatli. Odam bolasining cheklangan aqli bilan fikrlashga qobil kishilar birgina og'ir gunoh uchun tangri jahannam olovining mangu, muqarrar azobiga duchor etishini tushunishga o'z qobiliyatini qo'yib qo'yishadi. Chunki ular tana mayllariga va insoniy aql noqisligiga asir bo'lishib, gunohning behad qabihligini tushunib yetmaydilar. Ular yuzaki o'ylashadi, zero, bir yengil xatolikning qanchalik jirkanch va qabih bo'lishini anglashga qodir emaslar. Agar qudratda mislsiz yaratuvchi o'z kuchi bilan, faqat yolg'iz birgina nojo'ya ish - yolg'onni, g'arazli nazarni, bir daqiqali loqaydlikni jazosiz qolishi sharti bilan dunyodagi jamiki razillik va baxsizliklarni: urushlarni, kasalliklarni, bosqinchilikni, jinoyatni, o'limni, qotillikni to'xtatsa, tangrining tangriligi qayda qoladi, u bunday qilmaydi, u o'z qonunlariga bo'ysunmaganni jazolaydiki, zero, har qanday xato amal va kufrona o'y uning qonunlariga xilofdir.

Birgina gunoh - aqlning bir lahzalik takabburona isyoni Iblisni va farishtalar lashkarining uchdan birini yakson qildi. Birgina gunoh - bir lahzalik aqlsizlik va o'z qobiliyatini o'qibatida Odam Ato va Momo Havo behishtdan quvildilar va olamga o'limni, azob-uqubatlarni olib keldilar. Ana shu gunohlarni oxir-oqibat yuvmoq niyatida tangrining yolg'iz o'g'li yer uzra tushdi, yashadi, azob tortdi va chormix qilingan xochda uch soat buyuk azoblardan so'ng qazo qildi.

O', mening ahli Iso inilarim, nahotki biz karami keng xaloskorimizni tahqirlasak va uning nafratini qo'zg'asak? Nahotki, tag'in uning chormix qilingan, qiynoqqa solingan tanini toptasak? Muhabbat va g'am balqigan bu chehrega tupurmoqqa jur'at etsak? Nahotki biz, berahm murad munofiqilar va to'pori askarlar singari, ma'sum, ko'ngli yumshoq, biz uchun azob-uqubatlarni oxirigacha tortgan xaloskorimizni xo'rlasak? Har qanday gunohli kalom - uning nozik taniga yetkazilgan jarohatdir. Har qanday kufrona amal - uning manglayiga botgan tikandir. Biz ongli tarzda beriladigan har qanday nopok o'y-fikr - bu sevguvchi yurakka sanchilgan o'tkir nayzadir. Yo'q, yo'q. Biror-bir odam bolasi tangri buyukligini bu qadar qattiq tahqirlamoqqa jur'at etmagay, zero, bundayin gunoh mangu abadiy azob bilan jazolangusi, chunki u tangri o'g'lini tag'in xochga mixlaydi va uni tag'in tahqirlarga duchor etadi.

Tangriga iltijolar qilamanki, mening nochor pand-nasihatlarim haq yo'lidan borayotganlar diyonatini quvatlagay, ikkilanganlarni qo'llab-quvvatlab, adashgan bechora qalblarni diyonatga boshlagayki, agar oramizda bundaylar bor bo'lsa. Tangriga iltijolar qilaman - siz ham men bilan birga duo qilingiz - u bizga gunohlarimiz uchun tavba qilishga ko'mak bersin. Endi hammangizni bu joyda, mana shu oddiy cherkovda tangri nigohida tiz bukib, mening ortimdan tavba duosini takrorlashga chorlayman. U shu yerda, najot kemasida, odam qavmiga mehr-muhabbatga to'lug' va azobda qolganlarga taskin berishga tayyor. Qo'rqmang. Gunohlaringiz naqadar ko'p va og'ir bo'lmasin, agarda tavba qilsangiz, kechirilgusidir. Bekorchi sharm-hayo sizga monelik qilolmaydi. Axir, yaratgan egam - bizning rahm-shafqatli yaratuvchimiz gunohkor bandasiga abadiy halokatnimas, balki tavba-tazarruni va taqvoli hayotni istaydi.

Sizlarni u o'ziga chorlaydi. Siz - uning bolalari. Sizni u yo'qdan bor qildi. U sizni yaxshi ko'radi, faqat tangrigina chin muhabbat sohibi. Sizni quchishga uning quchog'i ochiq, garchi siz unga zid gunoh qilgan bo'lsangiz-da. Unga talpin sho'rlik gunohkor, nochor, notavon, adashgan banda. Ayni payti, tangriga matlub muddat bu.

Ruhoniy o'rnidan turdi, mehrobg'a yuzlandi va qorong'ulikda tiz cho'kdi. Hammaning tiz cho'kishini va shitirlagan tovushlar butkul tinchishini kutib turdi. Shundan so'ng, boshini ko'tarib, g'ayrat bilan tavba-tazarru duosini o'qiy boshladi. Bolalar uning aytganlarini so'zma-so'z takrorlashardi. Tili tomog'iga yopishib qolgan Stiven boshini quyi egdi va ichida duo o'qidi.

- Tangrim, yaratgan egam,
- Men chindan g'am chekayotirman,
- Negaki, sening qahringni qo'zg'adim, tangrim,
- Va qilgan gunohlarimdan jirkanaman,
- Ular har qanday badbaxtlik va yovuzlikdan-da mudhishdir,
- Chunki men sening muqaddas irodangga zid ish qildim,
- Sen esa, yaratgan egam, qudratda mislsiz va marhamatlisin,
- Va har qanday yuksak hamdu sanolarga munosibdirsin,
- Bu mening iltijolarim, parvardigor,
- Qutlug' karamingdan benasib etmagaysan,
- So'nggi kunimga qadar sening qahringni qo'zg'amagayman,
- Va umrim bo'yi gunohlarimni yuvib o'tgayman.

\*\*\*

Ovqatlanib bo'lgach, u yuqoriga o'zining xonasiga chiqdi, shu yerda yuragi bilan yolg'iz dardlashgisi keldi va har bir zinani bosib ko'tarilganda yuragi bir to'lg'anar, to'lg'anib, g'ira-shira qorong'ulikda u bilan birga tepaga ko'tarilardi.

U eshik oldidagi maydonchada to'xtadi, keyin tutqichni ushlab bosdi va eshikni ildam ochdi. Qo'rquv ichida sust qimirlar, yuragi ham butun vujudi bilan birga azoblanardi; u ovozi chiqarmay duo o'qidi, bo'sag'adan hatlaganda manglayi ajalga ro'para kelmasligini, qorong'i burchakka jam bo'lgan jinlar o'zini bandi etmasligini so'rab o'tindi. U bo'sag'ada, go'yo allaqanday qorong'u g'or og'ziga ro'para kelganday, qotib kutdi. G'orda uning payiga tushgan qo'rqinchli basharalar va chaqchaygan ko'zlar poylab turishibdi.

- Biz, albatta, juda yaxshi bilardikki, garchi bu, shubhasiz, oydinlashishi kerak edi, unga juda qiyin bo'ladi bu urinish, o'zini majbur etish, ma'naviy vakilni tan olishga urinib ko'rish va biz, albatta, juda yaxshi bilardik...

Shivirlab gapirayotganlar ko'zlarini chaqchaytirib poylashadi, sirli ovozlari g'orni qoplaydi. Tan va jonga tushgan qattiq qo'rquv borlig'ini siquvga oladi, biroq u boshini dadil ko'tarib qat'iyat bilan xonaga qadam tashlaydi. Tanish xona, tanish deraza. U o'zini qorong'ulikdan kelayotgan vahimali shivir-shivirlar mutlaqo bema'niligiga ishontiradi. U o'zini derazalari lang ochiq bu xona o'ziniki ekaniga ishontiradi.

U eshikni yopdi, karavotga tomon tez yurib borib, tiz cho'kdi va yuzini qo'llari bilan bekitdi. Uning qo'llari sovuq va ho'l edi, butun badani titroqdan zirqirardi. Jismoniy charchoq, titroq va horg'inlik uning madorini quritgan, fikrini yig'ib ololmasdi. Nega u tunda chuldirab duo o'qiyotgan go'dakka o'xshab tiz cho'kib o'tiribdi? Yuragi bilan yolg'iz dardlashish uchun, vijdoniga quloq tutish, gunohlarini rostgo'ylik bilan tan olib, qayerda, qanday sharoitda ularga qo'l urganini eslash va qilmishlaridan g'amga botib

yig'lash uchun. Biroq u yig'lay olmadi. U hatto gunohlarini eslay olmadi ham. Faqat og'riqni sezdi, ruhi va tani azob chekayotganini, butun borlig'ib "xotirasi, irodasi, ongi va badani holdan toyganini his etdi.

Bu jinlar, uning fikrlarini chalg'itishga, vijdonini uxlatishga, gunohga botgan qo'rqqoq vujudiga ega bo'lib olishga urinayotir; u bo'shangligi uchun tangridan yuragi dov bermay izn so'rab iltijo qilib, o'rnidan turdi va karovatga cho'zilib ko'rpaga burkandi-da, tag'in yuzini qo'llari bilan bekitdi. U gunoh qildi, U tangri irodasiga, samo saltanatiga qarshi og'ir gunoh qildi, minbad tangrining o'g'li deb atalishga nomunosib.

Nahotki u, Stiven Dedalus, shu qilmishlarga qo'l urdi? Bunga javoban vijdoni tilga kirdi. Ha, u yashirincha, qabihlik bilan, bir necha bor gunoh qildi. Eng yomoni, boshdan-oyoq gunohga botganiga, ruhi kufr botqog'iga belanganiga qaramay, mehrob ro'parasida yuziga farishta niqobini tutishga jur'at etdi. Tangri esa unga rahm qildi. Gunohlar, xuddi moxovlar to'dasiday, uni qurshab oldi, nafasleri yuziga urildi, to'rt tomondan bosib keldi. U duo o'qib gunohlarini unutishga chirandi va qo'llari bilan bosib, ko'zlarini mahkam bekitdi. Biroq yuragi tinchimadi. Uning ko'zlari bekilgan edi, biroq u o'zi gunoh qilgan joylarni ko'rdi; quloqlari mahkam bekitilgan edi, biroq u hammasini eshitdi. Butun kuchini yig'ib hech narsani ko'rmaslikka, eshitmaslikka urindi. Zo'r berib uringanidan badani titradi va tuyqusdan ruhi xotirjam tortdi, biroq bu bir lahza davom etdi. Shunda uning ko'ziga bir nimalar ko'rindi.

Qushqo'nmasning qotgan tomirlari, qichitqining butalari sochilgan xarobazor. Bu mudhish changalzorda pachoq tunukalar, kesaklar, qurib qolgan axlat uyumlari yotibdi. Najasdan oqish hovur ko'tarilib, tikanli sarg'imitil-yashil tomirlardan tepaga o'rlaydi. Tunukalardan, qotgan tezakdan xuddi botqoqdan anqiganday kuchsiz va qo'lansa achchiq hid ufuradi.

Dalada allaqanday mavjudotlar sang'iydi: bitta, uchta, oltita. Ular u yoq, bu yoqqa bemaqsad sandiraqlaydi. Yuzi o'liknikiday jonsiz odambashara, shoxli, siyraksoqol echkinusxa maxluqlar. Qahru g'azabga mingan bu maxluqlar uzun dumlarini sudrab nari borib, beri kelib, tentiraydi. Qoqsuyak qarimsiq yuzlarida zaharxanda irjaygan badxohlik alomatleri kezinadi. Biri patli gazlamadan tikilgan juldur nimchaga burkangan, boshqa biri - soqolchasi burganning qabzasiga ilashganda bir maromda angillaydi. Ularning qaqragan lablaridan tushunarsiz so'zlar chiqadi. Ular maydonni aylanaveradi, tomirlarni oralab o'tadi, dumlariga ilashgan tunukalar shaqirlaydi, yovvoyi o'tlar oralab zir yuguradi. Ular asta-sekin o'rab, tobora unga yaqinlashib keladi. Lablaridan tushunarsiz so'zlar uchadi; havoni hushtak chalib kesib tushayotgan dumlariga sassiq axlat yopishgan, qo'rqinchli basharalar yuqoriga cho'ziladi...

- Qutqaring!

U dahshatga tushib ko'rpani uloqtirdi, yuzini va bo'ynini bo'shatdi. Mana uning do'zaxi. Tangri unga gunohlari uchun hozirlangan jahannamni ko'rsatdi - jirkanch, badbo'y, buzuqlarning, badbin va echkinusxa jinlarning hayvoniy do'zaxi. Uning, uning do'zaxi! U karavotdan irg'ib turdi: ichak-chavog'ini ag'dar-to'ntar qilgan badbo'y zardob tomog'iga tiqildi. Havo! Osmon havosi! U sudralib derazagacha zo'rg'a yetib keldi, ko'ngli aynishidan hushini yo'qotar ahvolda edi. Yuvinadigan tos oldida uni qaltiroq bosdi va hushidan ayrilib, qo'lini muzday manglayiga bosganicha, jon azobida qusaverib bukchayib qoldi.

Biroz o'ziga kelgach, u mashaqqat bilan derazagacha borib oldi, deraza tavaqasini ochib, bir amallab tokchanning chetiga o'tirdi. Yomg'ir tindi. Tuman uyumlari bir yorug' nuqtadan boshqasi tomon suzar, go'yo shahar tevaragida pilla yigirayotganga o'xshardi. Osmon sokin, havo xuddi yomg'irga chumilgan o'rmon havosiday, nafas olish huzurli; va shu jimlik, jimirlagan yog'dular ichida va sokin huzurbaxsh havoda u o'z yuragiga va'da berdi.

U duo o'qidi:

"Bir gal u osmon shavkati-la yerga tushmoqni istadi, biroq biz gunohga yo'l qo'ydik. Va u bizga ulug'ligini, ziyosini yashirmay ko'rinsa olmasdi, zero, u tangri. Va u o'zini namoyon etdi, qudratda mislsiz shuhrati bilan emas, ma'sumligi bilan va seni, o'z qo'li bilan bino etganlarga nigohimizning imkoni darajasida mo'minlik shukuhi va yog'dusiga chulg'ab bizga yubordi. Va endi ayni qiyofang va sening vujuding bizga yerdagiday ko'zga xatarnok go'zallik haqida emas, balki nishonang bo'lgan ayni tong yulduziga mengzaguli mangu kun haqida gapiradi. O', o'sha kunning darakchisi! O', ziyoratchi yo'lini yorituvchi quyosh! Bizga ayni burungiday yo'l ko'rsataver. Tun zulmatida, najotsiz sahroda bizni xaloskorimiz Iso Masihga, boshpanamiz va manzil-makonimizga yetkar!"

Uning ko'zlari yoshga to'ldi va itoatkorona nigohini osmonga tikdi, u o'zining boy berilgan bokiraligiga qayg'urib yig'lab yubordi. Butunlay qorong'u tushgandan so'ng u uydan chiqdi. Tashqariga chiqqanda nam va qorong'u havodan olgan birinchi nafas va ortidan yopilgan eshikning taqillashi duo o'qigandan va ko'z yosh to'kkanidan keyin xiyla xotirjam tortgan qalbini tag'in alag'da qildi. Tavba qil! Tavba qil! Qalbni faqat duo va ko'z yoshlar bilan xotirjam qilib bo'lmaydi. U muqaddas ruh xizmatchisi ro'parasida tiz cho'kmog'i va unga o'zining pinhona gunohlarini ro'y-rost oshkor etib, tavba qilmog'i lozim. Kiriladigan eshik unga ichkariga kirishi uchun yo'l ochayotib ochilgunga qadar, oshxonada kechki ovqat tortilgan dasturxonga ko'zi tushgunga qadar, u tiz cho'kib tavba-tazarru qiladi. Axir, bu juda oson.

Vijdon azobi tinchidi va u qorong'u ko'chalarda ildam yurib ketdi. Bu ko'chalarga to'shalgan toshlar nechta, bu shahardagi ko'chalar, dunyodagi shaharlar qancha! Mangulikning intihosi yo'q. U esa og'ir gunohlarni ko'tarib yuribdi. Bir martagina kufrga yo'l qo'yish - bu ham og'ir gunoh. Bu bir lahzada ro'y berishi mumkin. Qanday qilib bir lahzada? Bir qarashda, bir kufrona fikr oqibatida. Sen ko'rishni istaganingcha ko'zing ko'rib ulguradi va bir lahzada gunoh qilib qo'lasan. Biroq tananing bu a'zosi biror nimani idroklaydimi? Ilon - yerdagi gazandalarning eng makkori. Bir lahzada ichida u o'zining nimani xohlayotganini tushunib yetadi va keyin lahzama-lahza gunohkor qilmishini amalga oshiradi. Buni u his etadi, tushunadi va qo'msaydi. Naqadar dahshatli bu! Uni kim bunday qilib yaratgan, vujudning bu hayvoniy qismini, hayvoniy tushunish qobiliyatini va hayvoniy qo'msash tuyg'usini? Bu nima: uning o'zining yoki allaqanday g'ayriinsoniy noayon ruhning amali oqibatimi? U ilonning lanj hayotiga o'xshagan, uning vujudidagi sharbatni so'radigan va shishib, kufrona shahvatga botadigan bu hayotni tasavvur etganda yuragi seskandi. O', nega bu shunday? Nima uchun?

Tangri oldida, jamiki tiriklik va borliqni yaratgan parvardigori olam qarshisida itoatkorona xo'rlik va qo'rquvda xayolidan kechgan bu nojoiz savollar zulmatidan kichrayib, junjayib qoldi. Telbalik bu! Unga bunday kufrona fikrni kim aytishi mumkin? U qorng'uda gumranib, ezilib, o'zining xaloskor farishtasiga ovoz chiqarmay iltijo qildi, qilichi bilan uning qulog'iga kufrona gaplarni shivirlayotgan shaytonni quvib solishini o'tindi.

Pichirlagan ovoz tindi va shunda u aniq tushundiki, uning o'zining ruhi yo'ldan ozgan, ham so'z, ham amal, ham o'y-xayollar bilan gunohga yo'l qo'yan, tani esa gunohning vositasi bo'lgan. Tavba qil! Har bir gunohing uchun tavba qil. Ruhoniyga qilgan qilmishlarini qanday yuz bilan aytadi? Biroq u aytishi kerak, albatta, aytishi kerak. Uyatdan yuzi kuyib, qanday tushuntirar ekan? Buni uyalmay turib amalga oshirishning iloji bormikan? Nodon! Tavba qil! Ehtimol, shundan so'ng u chindan ham yana emin-

erkin va gunohlardan butkul xoli bo'lar. Ehtimol, ruhoniy ruhini og'ir yukdan yengillatar! O', karami keng tangrim!

U xira yorug' ko'chalardan, ikkilanib biror-bir lahzaga to'xtab qolishdan cho'chib, ildam yurib borardi. Ezgulikka yo'g'rilgan tangrining mehrli nigohi nazar etgan qalb behad go'zal bo'lsa ajabmas!

Befarq sotuvchi ayollar o'zlarining savatlari bilan kursichalarda o'tirishibdi. Ularning yog' bosgan sochlari tutam-tutam bo'lib manglayida osilib turibdi. Ular kir-chir kiyimda, bukchaygan ko'yi loy ko'chada o'tirishibdi. Biroq ularning qalbi tangriga ochiq va agar ularning qalbi ilohiy yog'dudan bahramand bo'lsa, ular o'zidan nur taratadi va tangri mehrli nigohini ulardan darig' tutmaydi. Xo'rlik tuyg'usi uning ruhini cho'ktirdi. Modomiki, uning emas, mana bu yurgan qizlarning qalbi tangriga xush kelgan ekan, u juda tuban ketgani ayon! Ularning boshlari uzra esib o'tgan shamol boshqa son-sanoqsiz qalblar tomon yo'naladi, ular tangri marhamati bilan goh kuchli, goh kuchsiz, xuddi bir yonib, bir nursizlangan yulduzlarday, yorishadi. Miltillagan kuchsiz qalblar parvardigor marhamatidan benasib qoladi, chetlashib ketadi, ular xira nurlanadi va kuchli shamoldan o'chib-so'nib qoladi. Mana, bittasi halok bo'ldi: ushshoqday yurak yolqini o'chdi, bu uning qalbi. U bir lovullab so'ndi, unutildi, halok bo'ldi. Endi tamom: bu yog'i zulmat, qahraton, bo'm-bo'shlik, yo'qlik.

Aqli bovar qilmagan, yashab ko'rmagan cheku chegarasiz mangu vaqtdan mavjud voqelikka qaytish, tevaragidagi hayotni his etish tuyg'usi unga asta-sekin qaytdi. Hanuz atrofda o'sha nochor turmush davom etar: odatdagi baqiriq-chaqiriqlar eshitilar, do'konlarning gaz chiroqlari xira yorishib turar, baliqning, spirtning va nam tortgan taxta qirindisining hidi anqir, o'tkinchilar - erkaklar va ayollar borib-kelib yurardi. Qo'lida kerosin idish ko'tarib olgan qari kampir ko'chani kesib o'tmoqchi bo'ldi. U egilib kampirdan, shu yaqin orada cherkov bormi, deb so'radi.

- Cherkovmi, ser? Ha, bor, Cherch-stritda.

- Cherch-stritda.

Kampir idishni boshqa qo'lga oldi va unga yo'lni ko'rsatdi. Ro'molining popuklari tagidan terisi burishgan, kerosin hidli qo'lini chiqarganda Stiven kampirga yaqinroq egildi, uning ovozidan yuragi orziqib, yengil tortdi.

- Tashakkur.

- Marhamat ser.

Mehrob oldidagi sahnda shamlar o'chirilgan, biroq nim qorong'u burchaklardan ladanning xushbo'y hidi taralib turibdi. Soqolli, xudojo'y qiyofali xizmatkorlar yon tarafdagi eshik orqali taxtiravonni ko'tarib chiqishayotir, ruhoniy ularni bosiqlik bilan imo-ishora qilib, maslahat berib boshqarayotir. Cherkov qavmining bir necha tirishoq a'zolari yonboshdagi sahnda tiz cho'kishganча ibodat qilishayotir. U tortinib kirdi va ichkaridagi oxirgi o'rindiq oldida tiz cho'kdi, ko'ksi g'ira-shira yorug' cherkovning sokin, jimjit va xushbo'y havosidan to'lib-toshdi. U tizzalarini qo'ygan tosh taxta ensiz va ishqalanaverib yeyilib ketgan, yonida tizzalarini bukib ibodat qilayotganlar esa Isoning itoatkor izdoshlari. Iso ham kambag'al muhitda tug'ilgan va oddiy duradgor bo'lib ishlagan - taxta arralangan, randalagan, u ilk bor tangri saltanatidan saboq bergan kishilar kambag'al baliqchilar bo'lishgan, ularni Iso itoatkorlikka va beozorlikka o'rgatgan.

U qo'lini boshiga qo'ydi, yuragiga yolvorib itoatkor va beozor bo'lishga o'tindi, toki yonida tizzalarini bukib o'tirganlar singari mo'min, ibodati ham ularnikiday yaratganga matlub bo'lsin. U oddiy odamlar qatorida ibodat qilar, biroq bu juda og'ir kechardi. Uning qalbi gunohdan badbo'ylashgan va u Masihning tangriga xos karam bilan birinchilar qatori o'ziga chorlaganlari - duradgorlar, baliqchilar, daraxtni arralab taxta tayyorlaydiganlar, qanoat bilan erinmay to'r yamaydigan kambag'al avom kabi chin dildan ibodatga kirishib, tavba qilolmasdi.

Zinadan baland bo'yli jussa tushib keldi, ibodatxonadagilar g'imirlab qoldi. U boshini ko'tarib, uzun oppoq soqolga va jigarrang ruhoniycha libosga ko'zi tushdi. Ruhoniy tavba-tazarru xonasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ikki kishi o'rnidan turib, ikki tarafdan o'sha yoqqa o'tishdi. Eshik darchasi bekildi va past shivirlagan tovush jimlikni buzdi.

Uning tomirlarida qon gupurdi, bu xuddi gunohga botib g'aflatda yotgan shahar qo'qqisidan uyg'otilgan va o'ziga o'qilgan o'lim hukmini eshitgandagiday bir holat edi. Alanganing tillari bilanglaydi, tomlarni kul va qurum bosadi. Uyuqdagilar cho'chib uyg'onadi, tandirday qizigan havodan bo'g'ilishib, jon holatda oyoqqa qalqishadi.

Darcha ochildi. Tavba-tazarru qilgan kishi chiqdi. Narigi tarafdagi darcha ham ochildi. Xotirjam qiyofadagi ayol chaqqon yurib o'sha, boyagina birinchi bo'lib tavba qilgan kishi tiz cho'kib o'tirgan tarafga o'tdi. Tag'in kuchsiz shivirlagan tovush eshitildi.

Hali ham bu yerdan ketishi mumkin. O'rnidan turadi, bir qadam tashlaydi, keyin sekingina chiqib, ortiga qaramay yugurib ketadi. Hali ham sharmanda bo'lishdan qutulish mumkin. Bu, ehtimol, o'ta dahshatli jinoyatdir. Hatto qotillik qilishdan-da battardir.

Baribir uyat hissi uni oyog'idan boshigacha, xuddi qizib turgan kul-qurumga belanganday, ko'mib yubordi. Qilmishlarini birma-bir so'zlab berishi naqadar og'ir! Uning zada yuragi chidolmaydi bunga, o'lib qoladi.

Darcha yana ochildi. Tavba-tazarru xonasidan kimdir chiqdi. Beriroqdagi darcha ham ochildi. Ikkinchi bo'lib tavba qilgani kirgan kishi chiqib, navbatdagi kirdi. Endi xonadan mayin chuldiragan tovush eshitildi. Ayol kishi tavba-tazarru qilayotir. Mayin shivirlagan hovur ko'tarildi, beozor shivirlab beozor so'nadigan sas.

U yog'och o'rindiqqa qapishganча, xo'rliqi kelib ko'kragiga mushtlardi. Minbad u odamlarga o'zini yaqin oladi va tangrini taniydi. O'z yaqinini yaxshi ko'radi. Tangrini, o'zini bino qilgan va yaxshi ko'ruvchi egamni deydi. Tiz cho'kadi, hamma qatori ibodat qiladi va shunda, albatta, baxtli bo'ladi. Tangri unga muborak nazarini tashlaydi, hammalarini ko'radi va hammalarini suyadi.

Yaxshi odam bo'lish qiyin emas. Tangrining yuklagan tashvishlari shirin va ularni ado etish yengil kechadi. Muhimi, hech qachon gunoh qilmaslik, doimo go'dakday beg'ubor, pok bo'lib qolish, chunki tangri go'daklarni suyadi va ularni o'ziga yaqin oladi. Gunoh qilish juda og'ir yuk va oqibati dahshatli. Biroq tangri, chin dildan tavba-tazarru qilganlardan, mushfiq gunohkorlardan mehr-shafqatini darig' tutmaydi. O', bu naqadar chin! Mana, chinakam mehribonlikning tub mohiyati!

Darcha tuyqusdan ochildi. Ayol chiqib keldi. Endi uning navbati. U titrab-qaqshab o'rnidan turdi va xuddi tush ko'rayotganday, hech nimani ilg'amay, tavba-tazarru xonasiga o'tdi.

Uning fursati yetdi. Jimjit xira yorug'likda u tiz cho'kdi va boshini ko'tarib ro'parasidagi oq butga qaradi. Uning tavba qilayotganini tangri ko'radi. U o'zining qilgan barcha gunohlarini to'kib-soladi. Uzundan-uzoq tavba-tazarru qiladi.

Cherkovdagilarning barisi uning qanaqa gunohkor ekanini bilib olishadi. Mayliga bilishsin, bu haqiqat bo'lganidan keyin. Biroq tangri, agar u tavba qilsa, gunohidan o'tishni va'da qilgan, mana, u tavba qilayotir. U qo'llarini cho'zdi va oq butdan tavof oldi. U jazavaga tushib ibodat qildi: ko'zlarini yosh qopladi, lablari titradi, badani jimirlab ketdi; alam bilan boshini u tomondan bu tomonga sermab, duo so'zlarini hayajon bilan ayta boshladi.

- Pushaymonman, pushaymonman, o', pushaymonman!

Darcha qiya ochildi va uning yuragi shuv etib ketdi. Panjara ortida unga yarim burilgan, qo'lga tayangan holda, keksa ruhoniy

turardi. U cho'qindi va ruhoniyaning o'zini duo qilishini so'rab, gunohga yo'l qo'yganini aytdi. Keyin, boshini quyi solib, qo'rquv ichida "Confiteor"ni o'qidi. "Mening eng og'ir gunohim" degan so'zda to'xtadi, uning nafasi tiqildi.

- Qachon oxirgi marta tavba qilgan eding, bo'tam?

- Ancha burun, taqsir.

- Bir oy burunmi, bo'tam?

- Ko'p bo'ldi, taqsir.

- Uch oy bo'ldimi, bo'tam?

- Ko'proq, taqsir.

- Olti oymi?

- Sakkiz oy, taqsir.

Mana - boshlandi. Ruhoniy so'radi:

- Bu muddat ichida qanday gunohlarga qo'l urding?

U birin-ketin sanay boshladi: ibodatlarni o'tkazib yuborgani, duolarni o'qimaganini, yolg'on gapirgani - barisini aytdi.

- Yana-chi, bo'tam?

Adovat, hasad, xushomad, shuhratparastlik, itoatsizlik gunohlariga yo'l qo'ygan.

- Yana qanday, bo'tam?

- Men... zinoga yo'l qo'ydim, taqsir.

Ruhoniy boshini burib qaramadi.

- O'zing bilan o'zingmi, bo'tam?

- Boshqalar bilan ham.

- Ayollar bilanmi, bo'tam?

- Ha, taqsir.

- Eri bor ayollar bilanmi, bo'tam?

U bilmaydi. Gunohlar uning labidan birin-ketin oqib chiqaverdi, uning madda boylagan yaraday qalbidan yiringga qorishgan qon misol tomchiladi va go'yo irkit bo'tana oqimga aylandi. U ichidagi eng uyatli, qabih gunohlarini ham so'nggi tomchisigacha siqib chiqardi. Boshqa aytadigan gap qolmadi. Uning tinka-madori qurib, boshi osilib qoldi.

Ruhoniy biroz jim turdi. Keyin so'radi:

- Yoshing nechada, bo'tam?

- O'n oltida, taqsir.

Ruhoniy bir necha marta yuzini qo'li bilan siladi. Keyin boshini kaftiga tirab, panjaraga engashdi va hanuz unga qaramay, sekin gapira boshladi. Uning ovozi horg'in va qariyalarga xos edi.

- Sen hali juda yoshsan, bo'tam, - dedi u, - men sendan o'tinib so'rayman, bu gunohdan voz kech. U ruhni o'ldiradi, tanani xarob qiladi. U - jamiki jinoyatlar va baxtsizliklarning sababchisi. Undan voz kech, bolam, xudo haqqi voz kech. Bu nomaqbul va tuban mayil. U seni qayoqqa boshlashini bilmaysan va bir kun o'z oyog'ing bilan jar labiga borib qolganingni sezmay qolasan. Hozircha bu gunoh seni asir qilib olibdi, mening notavon bolam, shu bois tangri marhamati seni tark etgan. Muqaddas onamiz Bibi Maryaga ilotijo qil. U senga ko'mak beradi, bo'tam. Boshingni kufirona o'y-xayollar chulg'aganda bokiramiz Bibi Maryamga sig'in. Sen unga ibodat qilasan, albatta, bo'tam? Sen bu gunohlaringga afsus chekasan, men ishonaman, tavba qilasan. Va sen tangri taologa qasamyod keltirib, hech qachon bunday qabih gunohlar bilan uning qahru g'azabini qo'zg'amaslikka so'z berasan. Sen tangriga shunday tantanali qasam ichasan, to'g'rimi, bo'tam?

- Ha, taqsir.

Keksalarga xos vazmin ovoz uning titrab turgan, hayajondan yonib-qaqragan yuragiga misoli obi-hayotday ta'sir etardi. Naqadar quvonchli va naqadar qayg'uli!

- So'z ber, bo'tam. Seni iblis yo'ldan urgan. U senga tag'in tahdid etguday bo'lsa, la'natini qayta jahannamga hayda, bizning yaratguvchimizni ko'rolmaydigan bu nopok ruhni quv. Taningni xo'rlama. Tangriga qasamyod et, bu qabih gunohdan yuz o'girganingni aytib so'z ber.

Ko'z yoshi va tangrining mehr-shafqat nuridan ko'zi qamashib, gunohlardan xalos etayotgan tantanavor so'zlarni eshitib va o'ziga fотиha berayotgan ruhoniyaning qo'lini ko'rib, u boshini quyi soldi.

- Tangri rizo bo'lsin, bo'tam. Meni duo qil.

U qorong'u burchakka tiz cho'kdi va tavba-tazarru duosini o'qiy boshladi, duo uning osoyishta yuragidan, misoli oq atirgunning muattar bo'yi kabi samoga ko'tarildi.

Loy ko'chalar charog'onlashganday edi. U ko'cha bo'ylab borayotir, borlig'ini ko'z ilg'amas huzur-halovat chulg'ab, taniga qushday yengillik bag'ishlayotganini his qildi. U o'zini yenga oldi, tavba qildi va tangri uni afu etdi. Uning ruhi yana pokiza va muqaddas, muqaddas va xushbaxt bo'ldi.

Shu damda qazo qilguday bo'lsa, magar bunga tangri taolo izn bersa, g'oyat go'zal bo'lardi. Huzur-halovatda, yaqinlari bilan tinch-totuvlikda, himmat va itoatda yashash ham juda go'zal.

U oshxonada o'choq ro'parasida o'tiribdi, tuyg'ularga to'lib-toshganidan bir so'z aytishga jur'at etolmaydi. Shu damlargacha hayotning bu qadar jozibali va huzur-halovatli ekanini u bilmagan edi. To'g'nog'ichlar bilan chiroqning girdiga to'g'nab qo'yilgan yashil qog'ozdan pastga nimrang soya tushib turibdi. Bufetdagi taqsimchalarda yengil taomlar, javonda tuxumlar turibdi. Bu kollejdagi cherkovda o'tadigan qovushuv marosimidan so'ng ertalabki nonushtaga. Yengil taomlar va choy, choy va yengil taomlar. Hayot nechog'li oddiy va jozibali. Butun hayot hali oldinda.

Jamiki o'y-tashvishlarni unutib, u yotgani cho'zildi va uxlab qoldi. O'y-tashvishlarsiz uyg'ondi va tong otganini ko'rди. Xuddi tushdagiday, ruhi yengillashib ertalabki sokin ko'cha bo'ylab kollejga ketdi. Bolalarning barisi allaqachon cherkovda, har qaysisi o'z o'rnida, tiz cho'kib o'tirishibdi. U bolalar orasiga kirib, xushbaxt va xijolat tortib o'tirdi. Mehrob xushbo'y oq gullarga burkangan, tong yorug'ida shamlarning oqish nuri oq gullar orasida, xuddi uning ruhiday, tiniq va xotirjam nur taratadi.

U do'stlari orasida, mehrob ro'parasida tizzalarini bukib o'tiribdi, taxtiravon pardasi qo'llab-quvvatlab turgan ko'yi, ularning qo'llari ustida hilpiraydi. Ruhoniy muqaddas ne'matlar solingan idish bilan har bir bolaning oldida to'xtab o'tarkan, uning qo'llari titrar, yuragi jimirlab ketardi.

- Corpus Domini nostril[2].

Tushimi yo o'ngimi? Bu yerda u tiz cho'kib o'tiribdi - gunohsiz, beozor; hozir u muqaddas ne'matdan totinadi va tangri uning poklangan vujudiga kiradi.

- In vitam eternam. Amen[3].

Yangi hayot! Huzur-halovatli, pokiza va xushbaxt hayot! Buning bari chin! Bu tush emas. O'tmish o'tdi.

- Corpus Domini nostri.

Muqaddas ne'matlar solingan idish unga yaqinlashdi.

### To'rtinchi Bob

Yakshanba muqaddas uchlik sirli marosimiga bag'ishlangan edi, dushanba - muqaddas ruhga, seshanba - qo'riqchi farishtalarga, chorshanba - avliyo Yusufga, payshanba - muqaddas qovushish marosimiga, juma - tangri iztiroblariga, shanba - Bibi Maryamga. Har kuni tongda u aziz avliyolar yoki sirli marosimlar marhamatidan bahramand bo'lishga berilar. Uning kuni ertalabki ibodat va xayoliga kelgan har qanday niyatni, ko'ngil maylini oliy hakam sharafiga fidoyilarcha qurbon qilish bilan boshlanadi. Ertalabki sovuq havo taqvodorlikka berilgan tabiatini qiyin-qistovga olar va ibodatga kelgan kamchil odamlar orasida tizzalarini bukib o'tirib, ruhoniyning shivirlagan ovozigga basma-bas o'zining ochib qo'yilgan duolar kitobiga ko'z yugirtirarkan, g'ira-shira qorong'ulikda ikki sham - Qadimgi va Yangi Ahd timsollari - orasida turgan ibodat kiyimidagi jussaga tez - tez ko'z qirini tashlab qo'yar va o'zini uzun g'or ichida ibodat qilayotganday tasavvur etardi.

Uning kundalik hayoti taqvodorlikning turli xil jasoratlaridan tarkib topardi. Jonbozlik ko'rsatib ibodat qilib, duolar o'qib, u a'rofdan ruhi uchun kunlar, oylar va yillardan tarkib topadigan yuz yilni sotib oldi. Biroq tangrining muhlati cheku chegarasiz jazosini chetlab o'tib, u his etgan ruhiy ko'tarinkilik baribir jon - jahd bilan o'qilgan duolariga munosib darajada tatimadi, chunki bunday himoyalaniish a'rofdan qancha muddatga qisqartirilishini u bilardi, zero, a'rofning olovi do'zax olovidan faqat abadiy emasligi bilan farqlanardi. Tavba - tazarru duolaridan atigi bir tomchi suvchalik naf yetishidan cho'chib iztirob chekarkan, u kun osha o'zining toat-ibodatlariga zo'r berardi.

U o'zining yerda mavjudligidan kelib chiqadigan burchiga muvofiq, bo'laklarga ajratgan kunning har bir bo'lagini ma'naviy takomillashuviga bag'ishlagan edi. Uning qalbi go'yo abadiyatga doxil bo'layotganday tuyulardi; har bir fikr, so'z, harakat, botinida kechgan har bir o'zgarish go'yo samoda qayd etilar va ba'zan bu tezkor tuyg'u shu qadar jonli ediki, uning qalbi ibodat chog'ida misoli ulkan kassa apparatiga aylanganday, xarid etilgan buyumning narxi esa darhol samoda, raqam shaklida emas, balki ladanning yengil tutuni yoki nozik gul shaklida paydo bo'lganday tuyulardi.

U tinimsiz takrorlaydigan duolar (shimining cho'ntagida u doim tasbih olib yurar va ko'chalarni kezib erinmay tasbihni ag'darardi) bir g'aroyib samoviy tarovat kasb etgan gultojlariga aylandiki, bu gullar nomsiz bo'lgani bilan birga, unga yana rangsiz va hidsiz tuyulardi. Kunora o'qiladigan uch duoning har birini o'qish chog'ida u ruhi uch ma'naviy burchda: o'zini bino etgan ota xudoga ishonchda, xalokori o'g'il xudoga umidda va madadkori muqaddas ruhga mehr-muhabbatda barqaror bo'lishini iltijo qilardi.

Haftaning har yetti kunida u yana muqaddas ruhning yetti inoyatidan biri o'ziga nasib etishini va har kuni o'tmishda o'zani xo'rlagan yetti og'ir gunohni vujudidan quvib chiqarishni o'tinib so'raydi. Har bir inoyatning nasib etishini tilab belgilangan bir kun ibodat qiladi va bu inoyat o'ziga nasib etishiga umidlanadi. Gohida esa donolik, aqililik va bilim turlicha inoyatlar ekani, ularning har biri uchun alohida ibodat qilib o'tinish unga g'alati tuyulardi. Biroq u ma'naviy kamolotning qandaydir maqomiga yetishganda, gunohkor qalbi ojiz mayillardan voz kechganda va muqaddas uchlik mohiyatidan yorishganida bu sirdan voqif bo'lishiga ishonardi.

Uning qulog'iga tez-tez sahnadan yo cherkov minbaridan turib tantanavor ohangda aytiladigan, ehtirosli - sevgi va nafratni ifodalagan so'zlar eshitilardi, ularning ta'sirchan bitilgan shaklini kitoblarda o'qigan, biroq nega qalbida bu so'zlarga o'rin yo'qligiga, nima uchun ularni ovoz chiqarib aytish o'zi uchun qiyinligiga hayron bo'lardi. Vujudini bot-bot bir necha lahzalik nafrat tuyg'usi qamrab olar, biroq bu tuyg'u hech qachon davomli ehtirosga aylanmas va undan qutilish ham har gal qiyin kechmas, vujudi go'yo qandaydir libos yoki qobiqni tashlab yuborganday hayal o'tmay yengil tortar, osongina qutilardi. Ayrim daqiqalarda u vujudiga noayon, ko'z ilg'amas, ming'irlagan tovushda qandaydir xohish-mayillar joylashib olayotganini his etar, shunda butun borlig'i yonar - shahvoniy nafsga asar tushayotganday bezovtalanar, biroq bu hissiyot ham vujudini tez va oson tark etar, aql-hushi esa bunday damlarda hushyor totardi. Go'yo uning qalbida faqat shunday muhabbat va shunday nafratga o'rin borday tuyulardi. Biroq u endi sevgining mavjudligiga ortiq shubha qilolmasdi, zotan, tangrining o'zi uning ruhini azaldan ilohiy muhabbat bilan sevgan. Asta-sekin qalbi ruhoniylar bilim nuri bilan yorishib borgani sayin, olam uning ko'z o'ngida ilohiy qudrat va muhabbatning ulkan, beqiyos aksi bo'lib gavdalandi. Hayot tangri in'omiga aylandi va uning har bir sevinchli lahzasi uchun - hatto daraxt shoxidagi bargning yiltiragani uchun ham - uning qalbi yaratganga shukronalar aytmog'i lozim. Olam uning nazarida o'zining butun aniq-tiniqligi-yu jamiki murakkabliklari bilan ilohiy qudrat, muhabbat va hamma joyda hoziru nozirlik qonun-qoidasidan iborat edi.

U anglagan - uning qalbiga in'om etilgan bu ilohiy mohiyat tuyg'usi shu qadar yaxlit va shubhasiz ediki, natijada u o'z umrini davom ettirib yashashi nima uchun zarurligini qiyinchilik bilan tushunardi. Biroq, ehtimol, uning hayoti tangri tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan yo'lning bir qismidir, shuncha qabih va og'ir gunohlarga qo'l urganidan keyin uning mohiyat borasida savol berishi noo'rindir. Yagona, abadiy, har joyda hoziru nozir, mukammal mavjudlik tushunchasi itoatkor qilib qo'ygan, kamsitilgan uning ruhi tag'in o'z zimmasiga va'dalar, ibodatlar, duo o'qishlar, sirli marosimlarda qatnashish va o'zini-o'zi azobga qo'yadigan majburiyatlarni olardi; va faqat hozir, shu damda, buyuk sevgi siri ustida o'yga tolib o'tirib, u botinida iliq bir jonlanishni his etdi, go'yo vujudida yangi hayot yoki yangi bir ezgu hikmat barq urayotganday tuyuldi.

Biroq diniy talvasaga berilib ketishning xatarini bilgani bois, u eng oddiy cherkov qoidalaridan ham chetga chiqmasdi, o'zini-o'zi tinimsiz qiynash evaziga burungi gunohlarini yuvishga urinar, soxta avliyolikning qaltis xavfidan o'zini saqlardi. Vujudidagi besh sezgining har birini alohida-alohida sinovga solardi. U ayollarning ko'ziga ko'zi tushushidan o'zini olib qochardi. O'qib o'tirib, boshini ko'tarib qarar, ba'zan tuyqusdan, bir lahzali iroda kuchi bilan o'qib tugatilgan gapni o'rtasida to'xtatib, kitobni shart yopardi. U qulog'ini eshitmaydigan kuyga soldi; o'zining beo'xshov, siniq ovozigga e'tibor qilmadi, vaholanki, ovozi charxlanayotgan pichoqdan yo kulni uymalayotgan boyo'g'li panjalarining g'ijir-g'ijiriga yoki gilamga urilayotgan tayoqning tovushiga o'xshab asabini qo'zg'ardi. Hid sezish qobiliyatini o'tmaslashi qiyin kechdi, chunki u qo'lansa hidlardan savqitabiiy tarzda jirkanmasdi: masalan, ko'cha-ko'yning hidimi, axlat yoki qatron yoxud o'zining badanining isimi - bular unga qiyoslash va turli qiziq tajribalar uchun bir bahona bo'lardi.

Oxir-oqibat u sasigan baliq hidiga chiday olmasligini, bu hid bir joyda yig'ilib qolgan peshobning hidini eslatishini aniqladi va

o'rni kelganda o'zini shu hidga chidashga o'rgatdi. U ta'm bilish sezgisini ham o'ldirdi: nafsini tiyishga, cherkov ko'rsatmalariga qat'i amal qilishga o'zini majburladi, ovqat mahali esa yegulik haqida o'ylamaslikka urindi. Biroq tuyg'u sezgisini o'ldirishda u alohida ixtirochilik qobiliyatini namoyon etdi. U to'shakda tanasining holatini hech qachon o'zgartirmasdi, noqulay tarzda o'tirardi, badanining qichishi va og'riqlarga toqat qilar, sovuq paytda issiqdan chetroqda bo'lishga urinardi, butun ibodat davomida, Injilni o'qish vaqtidan tashqari, tizzalarini bukib o'tirardi, yuvinganida sovuq havoning ta'siri sezilsin deb yuzi va bo'ynini artmasdi. Qo'lida tasbeh bo'lmagan paytlar qo'llarini chopqir kabi ikki biqiniga siqib olar, cho'ntaklariga solmas yoki beliga qo'yib olmasdi. Endi u o'zida gunohga qiziqtiradigan ishtiyoqni his etmasdi. Biroq qat'i tartib-intizomni saqlashiga qaramay, ba'zida bolalarcha bo'shanglikka berilib ketishi uni ajablantirardi. Duo o'qib o'tirganida onasi aksa ursa yoki birov xalaqit bersa tuyqusdan jahli chiqib ketardi, bunday holatda toat-ibodatdan hech qanday naf yetmasligi tayin edi. Shunday vaziyatda jahlini jilovlash uchun kuchli iroda kerak bo'lardi.

Bunday mayda injiqlikning turli ko'rinishlarini u o'zining o'qituvchilarida ko'p kuzatgandi va ularning titragan lablarini, tishlarini tishlariga qattiq bosganini, qizargan yonoqlarini eslab, ularni o'zi bilan qiyoslab, fe'lini tuzatishga qanchalik urinmasin, qo'lidan kelmas va bundan ruhi cho'kardi. O'zining shaxsiy hayotini boshqalar hayotlari oqimiga qo'shib yuborish uning uchun har qanday diniy ibodatni ado etish yoki duo o'qishdan mushkil ediki, bu boradagi barcha urinishlari behuda ketardi; ushbu holat oxir-oqibat ma'naviy qashshoqlanishni yuzaga keltirdi, uning ortidan esa ikkilanishlar va shubha-gumonlar keldi. Ruhini umidsizlik chulg'adi; go'yo eng sirli marosimlar ham, qurib qolayotgan buloqlar kabi, uni najotbaxsh suvdan endi bahramand etolmayotganday tuyulardi. Tavba-tazarru ham faqat vijdonini azoblayotgan gunohlardan qutulishning bir vositasiga aylangandi. Qovushuv marosimi endi avvalgiday farog'atli daqiqalarni hadya etmasdi. Cherkovga u o'zi bilan eskitib ketgan, harflari xiralashib, sahifaladi sarg'ayib qolgan avliyo Alfons Liguriy tartib bergan duolar kitobini olib borardi. Olovli muhabbat va bokira ehtirosning xira tortgan dunyosi uning qalbi uchun ayni shu sahifalarda, qo'shiqlar qo'shig'idagi obrazlar marosim ishtirokchisining duolariga qo'shilib, uyg'unlashib ketgan joyda jonlanardi. Sassiz ovoz go'yo uning ruhini erkalar, sharaflar va ayni damda o'shani, unashilgan qizni nikohda hozir bo'lishi uchun bars tog'laridagi Amon qoyasidan yo'lga chiqishga da'vat etardi. Uning hukmiga tobe qalb ham xuddi shunday sassiz ovozda javob qilardi: "Inter uberamea mea commorabitur"[4].

Itoatkor qalbnig bu obrazi, duo o'qiyotgan, mulohaza yuritayotgan chog'ida tana mayllarining tag'in g'imirlab o'zidan darak bera boshlagani bois, uning uchun xatarli, jozibador tus ola boshladi. Bir bor bo'shanglik, bir marta nojo'ya xayolga berilishi shuncha mashaqqat bilan erishganlaridan mosuvo qilishini u aniq-tiniq anglab yetardi. Nazarida, sekin o'rmlab kelayotgan suv uning yalang'och oyoqlari kaftiga yaqinlashar va kuchsiz, shovqinsiz, yuvosh to'lqin terisiga tegay-tegay deb turganday tuyulardi. Va suv terisiga ayni tegayotgan payt - gunohga botay degan bir lahzada iroda kuchi yoki kutilmaganda duoning shiddati bilan u to'lqindan uzoqlashib ketar, qurug'likka chiqib olardi. Yiroqda qolgan, biroq tag'in sezdirmay oyoqlari ostiga g'imirlab oqib kelayotgan oqimning kumush tusli tasmagini kuzatib, u o'z irodasining kuchsizligini his etdi, biroq baribir bu jozibador jilvalarga berilmadim, yengilmadim degan fikr ko'nglida qoniqish paydo qildi.

Yo'ldan ozdiruvchi o'y-xayollar bilan doimiy kurashish qalbidagi ezgulikning bebaho yolqinini o'chirib qo'yishi uni tashvishlanishga majbur etardi. O'zidagi qat'iyatga ishonochi yo'qoldi va uning o'rinini tushunarsiz qo'rqo'v egalladi, oqibatda ruhi asta-sekin cho'ka boshladi. Faqat endi juda katta iroda kuchi evaziga burungi e'tiqodini tiklab olar va ruhiy farog'at holatiga qaytardi; ko'nglida har qanday hayu-havas, istak g'imirlaganda tangriga sig'inishga, tangridan so'ragan ruhiy farog'at, albatta, uning tomonidan in'om etilishiga ishonishga o'zini majbur etardi. Hayu-havaslarining tez-tez qaytalanishi va ta'sir kuchi o'zi bir paytlar eshitgan - avliyolar kechirishgan sinov-bardoshlarning haqqoniyligini ochiq-oydin tasdiqlardi. Bundayin istak-mayllarning bot-bot takrorlanishi va ta'sir kuchi shayton bo'ysundirishga zo'r berib urinayotgan ruhining bardoshliligiga dalil edi.

Tavba-tazarru chog'ida ruhoni uning ikkilanishlari va shubha-gumonlarini (duo o'qiyotganda bir lahzada loqaydlikka berilishi, gap-so'zida va harakatida mayda injiqlik va o'zboshimchalikka yo'l qo'yishi) tinglab, uni gunohdan xalos etishdan avval, buringi gunohlaridan birini aytishini so'rardi. U itoatkorlik bilan uyaliq-qizarib burungi gunohlaridan birini aytib afsus chekardi. Qanchalik toat-ibodatga berilmasin, ezgu fazilatlariga ega bo'lmasin, hech qachon bu gunohidan to'la-to'kis qutula olmasligini tushunardi. Bezovta gunohkorlik tuyg'usi uni hech qachon tark etmaydi; u tavba-tazarru qiladi, afsus chekadi va kechiriladi, yana tavba-tazarru qiladi, afsus chekadi va yana kechiriladi - biroq bari behuda. Ehtimol, o'sha birinchi bor, shoshilib, jahannam dahshati haqida eshitib qo'rqib qilgan ilk tavba-tazarrusi qabul etilmagandir? Ehtimol, u o'z gunohlariga chin dildan afsus-nadomat chekmagandir? Biroq o'z hayotini o'nglash, to'g'ri yo'lga solish uning ibodatlari to'g'riligini ko'rsatuvchi eng yaxshi dalillar, uning o'z gunohlariga chin dildan chekkan afsus-nadomatlariga asos.

"Axir, men o'z hayotimni o'ngladim-ku", takrorladi u ichida.

\* \* \*

Rektor deraza tagida yorug'ni orqasi bilan to'sganicha jigarrang pardaga engashib turardi. U gapirib va kulib turib, pardaning ipini qo'lga olib sekin chuyatar va yana o'ray boshlardi. Stiven uning ro'parasida turib, uylarning tomlarida uzun yoz kunining yorug'i so'nib borayotganini va ruhoniynig barmoqlarining ohista, bir tekis harakatini kuzatardi. Ruhoniynig yuzi soyada edi, biroq uning ortida so'nib borayotgan kunduzning yorug'i chuqur botgan chakkalariga, kallasining qing'ir-qiyshiq joylariga tushib turardi. Stiven kollej hayotida kechgan turli-tuman voqealarni xotirjam va ta'sirli qilib so'zlayotgan ruhoni ovozining o'zgaruvchan ohangiga quloq tutdi: ruhoni uning endigina tugagan ta'tillar, ordenning chet ellardagi bo'limlari va o'qituvchilarning almashishi haqida gapirardi. Xotirjam va ta'sirchan ovoz suhbatni bir zaylda boshqarar, orada to'xtalgan damlarda e'tiborli savollar tashlab gurgunni jonlantirib yuborishni Stiven o'zining burchi deb bilardi. U bularning bari daromadi gap ekanini anglar, keyin nima bo'lishini kutardi. Rektorga uchrashish haqida buyruq olib, chaqiriqning sababini bilolmay uning boshi qotdi, qabulxonada diqqat bo'lib kutib o'tirarkan, nigohi bir xushxulq suratdan boshqasiga sakrar, fikri esa beqaror bo'lib, bir tasmoldan boshqasiga ko'chardi. Bu holat nega chaqirishgani tuyqusdan ayon bo'lguncha davom etdi. Qandaydir kutilmaganda sabab bilan rektor kelmay qolishi ehtimolini ko'nglidan o'tkazishiga ulgirmay, qayrilayotgan eshik tutqichining tovushi va ruhoniycha uzun to'nning shitirlaganini eshitdi.

Rektor dominikan va fransiskan ordenlari haqida, avliyo Fomaning avliyo Bonaventura bilan do'stligi haqida gapirdi. Tarki dunyo qilgan monaxlar ordeni a'zolari - kaputsinlarga ibodat liboslarini kiygizish unga bir qadar...

Stivenning yuzida ruhoniynig iltifotli tabassumiga javoban kulgi jilvalandi, biroq bu masalada u biror-bir mulohaza bildirishni istamadi, faqat tushunmayotgan ko'yi lablarini sal-pal qimirlatib qo'ydi.

- Men eshitdimki, - davom etdi rektor, - kaputsinlarning o'zlari, fransiskanlarga o'xshab, bu libosni bekor qilish haqida

15 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

gapirishayotganmish.

- Biroq uni monastrlarda saqlab qolishar? - dedi Stiven.

- Ha, bo'lmasam-chi, albatta, - dedi rektor, - monastrlarda bu ayni muddao, lekin ko'chada kiyib yurish... to'g'risi, bekor qilingani ma'qul, nima deysiz?

- Ha, noqulay.

- Juda to'g'ri, noqulay. Tasavvur qiling, men Belgiyada bo'lganimda ko'rdim, kaputsinlar har qanday ob-havoda ham o'zlarining bu keng-mo'l chakmonlarining etagini tizzalariga o'rab olib, velosipedda yurishadi. Bu, axir, kulgili emasmi? Les jupes - Belgiyada ularni shunday atashadi.

Undosh tovush shunday jarangladiki, so'zni tushunishning iloji bo'lmadi.

- Qanday dedingiz?

- {nw|Les jupes}}.

- Ha-a.

Stiven tag'in ruhoniyning tabassumiga javoban kulimsiradi, ruhoniyning yuzidagi kulgi ko'rinmasdi, chunki uning yuzi soyada edi; ruhoniyning vazmin, bosiq ovozini eshitganda uning kulgu sharpasi Stivenning ongida darhol jonlangandi. U derazadan xira tortib borayotgan osmonga xotirjam qaradi, kechki salqindan va yonog'idagi nimjon qizillikni yashirgan ufqning g'ira-shira sarg'ish to'zonidan ko'ngli sevindi.

Ayollar kiyimlarining nomi yoki bu kiyimlar tikiladigan harir mayin matolar uning xotirasida allaqanday kufrona hidlari bilan qolgan edi. Bolaligida jilovlar - bu yupqa ipak tasmalar, deb tasavvur qilardi, keyincha Stredbrukda birinchi marta otning yog'li, qo'pol yuganini ushlab ko'rganda hayratga tushgandi. Birinchi marta o'zining titragan barmoqlarida ayollar paypog'ining g'adirdudur ipini ushlab ko'rganda ham xuddi shunday hayajonga tushgandi. Bunday bo'lishining boisi shunda ediki, u o'qiganlaridan faqat o'z holatiga mos, ko'nglidagiga javob beradiganlarini eslab qolardi va o'zini sevgiga baxsh etgan ayolning ruhi yoki tanini nozik, mayin ovozli, xuddi atirgulning gulbarglariday yupqa matoda tasavvur etmay turib ko'z oldiga keltirolmasdi.

Biroq ruhoniyning og'zidan chiqqan gap tasodifan aytilgani yo'q; u bilardi, ruhoniyn bunday mavzularda hazillashishni lozim ko'rmaydi. Gap hazil aralash aytildi, biroq bekorgamas va u soyadagi ko'zlar uning yuziga qiziqsinib qaraganini his etdi.

Hozirgacha u iyezuittlarning makkorliklari haqida eshitgan yoki o'qiganlariga ahamiyat bermay kelardi. Hamisha o'zining o'qituvchilarini, garchi ularni unchali yoqtirmasa-da, jiddiy, aqlli, jismonan va ruhan sog'lom tarbiyachilar, deb hisoblardi. Ular ertalablari boshlaridan sovuq suv quyub yuvinishadi va toza salqin kiyimlar kiyishadi. Klougousda va Belvederda ularning orasida yashashga to'g'ri kelgan shuncha vaqt mobaynida u ikki marta qo'liga chizg'ich bilan urib jazolandi, vaholanki, bu jazolar nohaqdan berilgan edi, u ko'p narsalar uchun o'zining jazolanmay qolganini ham bilardi. Shu vaqt mobaynida u o'zining o'qituvchilaridan biror marta ham ma'nisiz gap eshitmadi. Ular unga xristian ta'limotining mohiyatini o'rgatishdi, uni diyonatli hayot kechirishga da'vat etishdi, og'ir gunohga botganida ezgulikka qaytishiga ko'maklashishdi. Ular bor joyda u o'zini qat'iyatsiz sezardi - Klougousda ham so'takligidan, Belvederda ham hardamxayolli bois shunday holatga tushardi. Bu doimiy ikkilanishlar uning kollejdagi so'nggi yiligacha davom etdi. U biror marta o'qituvchilarining gapini ikki qilmadi, shumtaka jo'ralarining aldovlariga uchmadi, o'zining vazmin, itoatkor fe'l-atvorini o'zgartirmadi va qachondir o'qituvchilarining mulohazalari to'g'riligiga shubhalangan bo'lsa-da, buni ochiq-oshkora aytgani yo'q. Yillar o'tgan sayin ularning ayrim qarashlari unga birqadar jo'n bo'lib tuyula boshladi.

Bu uning qalbida pushaymonlik va o'kinch tuyg'ularini uyg'otar, nazarida, u o'zi o'rganib qolgan olam bilan asta-sekin xayrlashar va uning nutqini so'nggi marta tinglayotganday edi. Bir safar cherkov oldidagi ayvon tagida bir nechta bola ruhoniyn bilan suhbatlashardi, u ruhoniyning shunday deganini eshitdi:

- Menimcha, lord Makoley umrida biror marta gunoh ish qilmagan, demoqchimanki, biror marta ongli ravishda og'ir gunohga qo'lmagan.

Keyin bolalardan biri ruhoniyn Viktor Gyugoni siz buyuk fransuz yozuvchisi deb hisoblaysizmi, deb so'radi. Ruhoniyn javob berib, Viktor Gyugo cherkovdan yuz o'g'irgandan keyin, katolik bo'lib yurgan paytidagidan ko'ra xiyla yomon yoza boshlaganini aytdi.

- Biroq, - qo'shib qo'ydi ruhoniyn, - ko'plab fransuz tanqidchilarining fikricha, Viktor Gyugo, shubhasiz, buyuk yozuvchi sanalsada, Lui Veyo singari tiniq uslubga ega emas.

Stivenning yuziga yugirgan rangpar qizillik ruhoniyning bu shamasidan so'ndi, uning ko'zlari hali ham oqish tUSDagi osmonda edi. Biroq ongida allaqanday beqaror shubha kezinaradi. Xotirasidan bo'lib o'tgan voqealar elas-elas qalqib chiqqan boshladi: u sahnalarni va ularda harakatlanayotgan qiyofalarni tanidi, biroq eng muhim narsani eslashi qiyin bo'ldi. Mana, u Klougousdagi sport maydonchasi chetida yurib, o'yinni kuzatayotir, o'zining kriket qalpoqchasidan konfet olib yeyapti, iyezuittlar esa yo'laklarda xonimlar bilan velosipedda sayr qilishayotir. Allaqanday unutilayozgan, Klougousda ko'p aytiladigan arzimmas so'zlar uning xotirasi tubida aks-sado beradi.

U jim-jit qabulxonada o'tirib, uzoqdan kelayotgan bu aks-sadoni ilg'ashga urindi va tuyqusdan butunlay boshqacha ohangda o'ziga murojaat etayotgan ruhoniyning ovozidan hushyor tortdi.

- Men bugun seni chaqirtirgan edim, Stiven, chunki sen bilan maslahatlashib oladigan muhim gap bor.

- Eshitaman, ser.

- Sen qachondir o'z qalbingning haqqoniy da'vatini tuyganmisan?

"Ha" demoqchi bo'lib Stiven lablarini ochdi, biroq shu zahotiyog' o'zini tiydi. Ruhoniyn javobni kutib turdi va keyin qo'shib qo'ydi:

- Aytmoqchimanki, sen qachondir qalbing tubida ordenimizga a'zo bo'lish istagini tuyganmisan? O'yla-chi.

- Men bu haqda o'ylaganman, - dedi Stiven.

Ruhoniyn pardaning ipini qo'yib yubordi va qo'llarini ko'kragiga qovushtirdi, o'ychan qiyofada ularga iyagini tiradi va xayolga toldi.

- Biznikiday kollejdagi, - dedi u nihoyat, - gohida bitta yoki, ehtimol, ikki-uchta o'quvchi topilar tangri taollo tomonidan din yo'lida xizmatga da'vat etiladigan. Bunday o'quvchi o'z tengdoshlari orasidan mo'minligi va boshqalarga munosib xislatlari bilan ajralib turadi. U o'z do'stlarining hurmatini qozonadi, muqaddas birodarlik jamiyati a'zolari uni o'zlarining prefekti etib saylashadi. Mana sen, Stiven ana shunday o'quvchilar sirasiga kirasan, sen - bizning Bibi Maryam birodarlik jamiyatimiz prefektisan. Va, ehtimol, sen, tangri o'z xizmatiga munosib ko'rgan o'sha bo'zboladirsan.

Ruhoniyning ovozidagi jiddiy, ta'sirchan ohangdan kuchaygan oshkora g'urur tuyg'usi Stivenning yuragini tez urishga majbur



qildi.

- Bunday e'tiborga sazovor bo'lmoq, - davom etdi ruhoniylar, - shundayin ulug' marhamatki, buni odam bolasiga karami keng egamgina in'om etishi mumkin. Bizning yerimizdagi na biror qirol, na biror hukmdor tangri xizmatchisi ega bo'lganchalik hokimiyatga ega bo'lolmaydi. Na biror malak, na malaklar malagi, na avliyo va hatto Bibi Maryamning o'zi ham tangri xizmatchisi qadar hokimiyatga ega emas: tangri podshohlighi darvozasining kalitini qo'lida tutmoq, gunohlarni bog'lamoq va hal etmoq, sehru afsun, tangri bandalari vujudidan ularga azob berayotgan nopok ruhlarni quvmoq, ulug' egamni samodan tushib, minbarda non va vinoga aylanishga chorlash vakolatiga ega bo'lmoq ana shu hokimiyat ilkidadir. Buyuk hokimiyat bu, Stiven!

Stivenning yuziga yana qizillik yugurdi, u ruhoniylarning mag'rur murojaatida o'zining mag'rur orzulari aks-sadosini eshitgandi. U o'zini, buyuk hokimiyatga ega vazmin va itoatkor, farishta-yu avliyolar izzatu ikromidagi ruhoniylar qiyofasida tez-tez ko'z oldiga keltirardi. Qalbining tubida shuni pinhona orzu qilardi. U o'zini navqiron, munosib qadr-qimmatga egaligidan ko'ngli to'q ruhoniylar sifatida tasavvur etardi. Mana, u jadal yurib tavba-tazarru xonasiga kirib kelayotir, mehrob zinalaridan ko'tarilayotir, ladan tutatayotir, tizzalarini bukayotir, diniy marosim amallarining nozik va sirli harakatlarini amalga oshirayotir. Bu harakatlar hayotdagi o'xshashligi va ayni paytda oddiy turmushdan butkul o'zgachaligi, ajralib qolgan bilan uni chalg'itardi. U o'z orzulari ichida yashagan xayoliy hayotda ruhoniylardan o'zlashtirgan ovoz va imo-ishoralarni o'ziniki qilib olgandi. U biroz egilib tizzalarini bukadi, xuddi bu ruhoniylar o'xshab; isriqdonni, boshqa bir ruhoniylar taqlidan, hafsa bilan bir tekis sermaydi; egnidagi ruhoniylar libosi esa, uchinchi bir ruhoniylar singari, duoni o'qib bo'lib mehrobga burilganda ochilib ketadi. Biroq bu tasavvurlarida, xayoliy sahnalarda unga ikkilamchi rolni o'ynash ko'proq yoqardi. U bosh ruhoniylar unvonidan voz kechadi, chunki u holda butun dabdabali marosimning uning o'zi boshlab o'zi tugatar, boz ustiga, marosim qoidalari uning vazifalari aniq-tiniq belgilab qo'yilgandi.

U kamtarroq cherkov unvonini orzu qildi: mana, u hammaning nazaridan chetda, mehrobdan uzoqda kichik ruhoniylar libosida, yelkasiga yengil yoping'ich tashlagan, uning etaklari bilan u diskosni ushlab turibdi; muqaddas ne'matlarni tatish marosimi yakunida, zarhal ipda tikilgan diakon libosida, ruhoniylardan bir zina quyida, qo'llarini qovushtirib va ibodatchilarga yuzini burib, qiroat bilan e'lon qiladi: "Ite, missa est". Agar u o'zini qachondir ruhoniylar roliga ko'rgan bo'lsa, bunga faqat bolalar duo kitobida ko'zi tushgan: kimsasiz cherkovda, oddiy va talabchan mehrob oldidagi kursida faqat bir farishta va xizmatchi o'spirin, xuddi uning o'ziday o'spirin o'tiribdi.

Hozir odob bilan sukut saqlab turib, u ruhoniylarning so'zlariga e'tibor qildi va bu so'zlar ortidan uni yaqinlashishga undagan, unga sirli donolik va sirli hokimiyat taklif etgan yanada teranroq ovozni eshitdi. U Simon Volxvaning gunohi nimada ekanini va hech qachon kechirilmas muqaddas ruhga shakkoklik nimaligini bilib oladi. U boshqalardan sir tutilgan, qahrdan bino bo'lgan va tug'ilgan shubhali sirlardan voqif bo'ladi! U boshqalarning gunohlarini, gunohli mayl-istaklarini, kufirona o'y-xayollarini tinglaydi: ularni g'ira-shira cherkovda, tavba-tazarru xonasida ayollar va qizlarning lablari qulog'iga pichirlab aytadi. Uning qalbi, sirli tarzda daxlsizlik kasb etib, tag'in tangrining yorug' taxti oldida gunohsiz paydo bo'ladi. Uning qo'lga hech bir gunohning gardi yuqmaydi, zotan, bu qo'llari bilan u qovushuv marosimining muqaddas nonini ushatadi; uning duo o'qiyotgan dahaniga hech qanday gunoh daxl qilolmaydi, zotan, u tasodifan, tangri vujud haqida mulohaza yuritmay turib, uni kavshamaydi va ichmaydi. U sirli bilim va sirli hokimiyatni asraydi, bokira go'dak misol gunohsiz bo'lib, umrining so'nggi kunigacha, Malkisidq unvoniga mos martabada yaratganning xizmatida bo'ladi.

\* \* \*

- Ertaga men ibodat xizmatini ado etaman, - dedi rektor, - nasib etib, qodir egam seni o'z karamidan bahramand etsin va sen, Stiven o'zingning piringga, tangrining suygan bandasiga iltijo qil, shoyad, yaratgan aqlingni ravshan etsa. Biroq sen qattiq ishonishing kerak, Stiven, sening iqtidoring bor, agar uning yo'qligini keyincha payqab qolsang juda qiyin bo'ladi. Yodingda tut: ruhoniylikka qo'l berganingdan so'ng, sen bir umr ruhoniyligingcha qolasan. Aqidlar kitobidan senga ma'lum, diniy unvonga kirishning sirli marosimi faqat bir bor bo'ladigan marosim, zotan, u yurakda o'chmas iz qoldiradi. Sen bularning barini hozir taroziga qo'yib ko'rishing lozim, keyin kech bo'ladi. Bu juda muhim masala, Stiven, zero, sening o'lmas ruhing xalos bo'lishi shunga ham bog'liq. Biz birgalikda tangriga ibodat qilamiz.

Shunday deb u og'ir eshikni itarib ochdi va Stivenga, uni endi go'yo o'zining ruhoniylar hayotdagi hamkori hisoblab, qo'l uzatdi. Stiven zina tepasidagi keng maydonchaga chiqdi va kechki mayin havoning iliq ta'sirini his etdi. Finleyters-Cherch oldida to'rt nafar yigit qo'l ushlab, boshlarini sermaydi, ulardan biri olti qirrali garmonda chalayotgan sho'x kuyga mos harakat qilardi. Musiqaning ilk tovushlari, har doimgiday, uning g'aroyib fikrlarini, xuddi bolakaylar qumloqda yasagan minorachalarni tuyqusdan bostirib kelgan beozor va shovqinsiz to'lqin g'arqob qilganday, yuvib ketdi. U yasama ohangga kulimsirab, boshini ko'tarib ruhoniylarning yuziga qaradi va unda botayotgan kunning shavqsiz aksini ko'rdi, haligina ularning ruhoniylar ittifoqini tan olib turgan qo'lini ruhoniylarning qo'lidan ohista oldi.

Zinadan tushayotib kutilmaganda u o'zini bundan keyin azobga qo'ymasligini his etdi. Bunga ruhoniylarning botayotgan kun aks etgan yuzi sabab bo'lgan edi. Xayolida kollejning zerikarli hayoti jonlandi. Uni ordenda ham ana shunday zerikarli, yakrang, oddiy Ъ"kundalik tashvishlardan xoli hayot kutardi. Klougousdagi uzun dahlizlarning bo'g'iq havosi uning yodiga tushdi, yonib turgan gaz chiroqlarining past tovushda vishillashini eshitdi. Tuyqusdan vujudini sababsiz bezovtalik chulg'adi. Yuragi tez ura boshladi va buning ortidan allaqanday ma'nisiz kuchli shovqin uning sergak o'y-xayollarini to'zg'itib yubordi. Uning o'pkasi, go'yo namxush, iliq va bo'g'iq havodan nafas olayotganday, goh kengayib, goh toraydi va u yana Klougousning yuvinish xonasidagi torf tusli bo'tana suvini, nam, iliq havosini his etdi.

U har gal bu hayotga xayolan yaqinlashganda vujudida allaqanday ta'lim-tarbiya va ezgulikdan-da kuchliroq instinkt paydo bo'lar va bu noayon, noxayrixoh instinkt uni: rozi bo'lma, deya ogohlantirardi. Yangi hayotning sovuq va bir maromdagi muhiti uni bezdirardi. U o'zining ertalabki rutubatli havoda, boshqalar bilan turnaqator tizilib tonggi ibodatga borishini, duo o'qib, me'daga tekkan zoriqishni bartaraf etishga behuda urinishini ko'z oldiga keltirdi. Mana, u jamoa bilan dasturxon atrofida o'tiribdi. Odamoviligini qanday yengsin, shunday fe'li bois, uning begona joyda yeb-ichishga tobu toqati yo'q-ku? G'ururini qanday yengsin, axir, shu tufayli u doim o'zini doim yolg'iz his etib kelgan-ku?

Uning siyoqi Stiven Dedalus, S.J

Uning ismi bu yangi hayotda kutilmaganda ko'z oldida aniq ko'rindi, keyin esa yuzi emas, yuzining rangi g'ira-shira paydo bo'ldi. Bu rang goh oqish, goh xira-g'ishtrang tus oldi. Bu nima - u qish kunlari ertalab ruhoniylarning qirtishlangan yonoqlarida ko'rgan yallig'langan qizillikmi? Yuzlar ko'zsis, xo'mraygan-vazmin, xudojo'y edi, qizargan yonoqlarda tiyib turilgan qahr qotgan. Bu

nima? Ehtimol, u bolalar Chiroqli Simyog'och, boshqalari esa Qari Tulki Kempbell deb atashadigan iyezuitning yuzini xotirlagandir?

Bu payt u Gardner-stritdagi iyezuitlar ordeni uyi oldidan o'tayotgan edi, beixtiyor, agar ordenga kirsam qaysi deraza meniki bo'larkan, deb o'yladi. Va shu damdayoq o'zining qiziquvchanligidan ajablendi - uning qalbi haligina o'ziga muqaddas tuyulgan narsadan endi juda olisda edi. Uni qancha yil itoat va intizomda ushlab turgan jilov nihoyatda chidamsiz, nochor tuyuldi; va bu ayni o'sha - uni erkidan umrbod judo etadigan qat'i, hal etuvchi qadamni tashlashi kerak bo'lgan daqiqada ayon bo'ldi. Cherkovning balandparvoz da'volari, ruhoniylilik unvonining sirlariyu qudrati haqida gapirgan rektorning ovozi uning xotirasida bekorchi ovozday aks-sado berdi. Uning yuragi bu ovoza e'tiborsiz edi va u endi barcha pand-nasihatlarni puch, rasmiy gaplar ekanini bildi. Yo'q, u hech qachon mehrob oldida isriqdonni sermamaydi. Uning qismati - har qanday jamoaviy va diniy tushovlardan qochish. Ruhoniyni dono pand-nasihatlari uni asir etolmadi. Uning qismatida boshqalardan uzoqda o'zining donoligini topmoq yoki dunyo hoyu havaslari ortidan quvib, o'zi boshqalarning donoliklarini anglashi kerakligi bitilgan. Dunyoning hoyu havaslari - gunohning yo'llari. Va u gunoh chohiga qulaydi. U hali qulaganicha yo'q, biroq sezdirmay, shovqinsiz, bir lahza ichida qulaydi. Qulamaslik - bu juda og'ir, o'ta qiyin. U ruhining shovqinsiz qulab tushayotganini his etdi: mana, tushib kelayotir, hali qulaganicha yo'q, biroq qulashga shay.

Tolk soyi ustidagi ko'prikdan o'tayotib, u rangi o'chgan zangori Bibi Maryam butxonasiga befarq qarab qo'ydi; poydevorga o'rnashgan butxona, atrofini o'rab olgan faqirona kulbalar orasida, xuddi qo'noqdagi tovuqqa o'xshab ko'rindi. Keyin u chapga burilib, uyiga olib boradigan tor ko'chaga kirdi. Tepaliklar bo'ylab daryogacha cho'zilgan qarovsiz polizlardan chirigan karamning ko'ngilni aynitadigan achqimtil hidi dumog'iga urildi. U kulimsirab, mana shu befarqlik, pala-partishlik, oilasidagi tanazzul va o'simliklar hayotidagi turg'unlik oxir-oqibat ruhimni yengadi, deb o'yladi. Uylari ortidagi polizda ishlagan, ular Shlyapali Amaki deb chaqirishadigan so'qqabosh dehqon yodiga tushib, bexosdan kulib yubordi. Shlyapali Amaki ishga kirishishdan oldin dunyoning to'rt tarafiga bir-bir qarab olar va keyin chuqur xo'rsinib, belkurakni yerga sanchardi.

U qulflanmagan eshikni itarib ochib kirdi va yalong'och dahlizdan to'g'ri oshxonaga o'tdi. Uning singillari va ukalari stol atrofida o'tirishardi. Chamasi, choyxorlik tugayotgandi, chashkalar o'rnida ishlatiladigan shisha krujka va sharbatdan bo'shagan bankalar tagida ichib tugatilayotgan suyuq choy qoldiqlari ko'rinar edi. To'kilgan shakar bilan qorishgan non ushoqlari va bo'laklari dasturxonada sochilib yotardi. U yer, bu yerda to'kilgan choy yoyilib, chaplashib ketgan, suyakdan qilingan dastasi singan pichoq kovlab tashlangan pirogning yuqiga belangan.

Botayotgan kunning g'amgin, ma'yus, kulrang yolqini derazadan, ochiq eshikdan tushib turar va Stivenning qalbida to'satdan g'imirlagan o'kinch tuyg'usini bir qadar yumshatardi. Ularga rad etilgan narsalarning bari unga - oilaning to'ng'ichiga qo'shqo'llab berilgan edi, biroq g'ira-shira shom yog'dusida u singillari va ukalarining yuzida hech qanday alamzadalik alomatini ko'rmadi. U stolga, ularning yoniga o'tirdi va otasi bilan onasi qayerdaligini so'radi. Bolalardan biri javob berdi:

- Ula uyyi ko'ygani kettila.

Demak, yana ko'chilarkan. Belvederda Fellon degan bir o'quvchi doim hiringlab, undan nega ko'chishni buncha yaxshi ko'rasizlar, deb so'rardi. U ana shu ahmoqona hiringlashni eslaganda, qahri qo'zib manglayida chiziq paydo bo'lardi.

- Bilsa bo'ladimi, nega biz yana ko'chadigan bo'ldik? - so'radi u.

- Xo'jayin bizzu uyidan haydayapti.

Stolning narigi chetidan ukasining "Sokin oqshomlarda" Ini xirgoyi qilgan ovozi keldi. Birin-ketin boshqa bolalar ham xirgoyiga qo'shilishdi va nihoyat hammasi jo'r bo'lib ayta boshlashdi. Ular shu zayl, tungi qora bulutlar paydo bo'lib, shom qorong'usi tushmaguncha xirgoyini davom ettirishdi.

U bir necha daqiqa quloq solib kutdi, keyin o'zi ham ularga jo'r bo'ldi. Singillari va ukalarining toza, bokira ovozlardagi horg'inlikni anglab, uning ko'ngli og'rindi. Ular hali hayotning katta yo'lga tushib olishganicha yo'q, biroq allaqachon toliqishgan. U son-sanoqsiz bolalarning ovozlari aks-sado berib, qo'shib, jo'r bo'layotgan bu xirgoyini eshitdi va bu sadolardan uning qulog'iga horg'inlik, uqubat ohanglari chalindi. Uning nazarida bolalar hali yashashni boshlamay turib hayotdan charchaganday tuyuldi. Va u Nyumenning ham ayni shu ohangni Vergileyning "Tabiatnikiday ovoza azob-uqubatni, horg'inlikni, shu bilan birga, barcha zamonlarda bolalarining qismati bo'lmish yaxshi kunlar kelishiga umidini ifodalagan g'amgin satrlari"da eshitganini xotirladi.

\* \* \*

U ortiq kutib turolmasdi.

"Bayron" qahvaxonasidan Klontarf butxonasigacha, Klontarf butxonasidan "Bayron" qahvaxonasigacha va yana butxonaga, keyin tag'in qahvaxonaga borib-kelib yurib turdi. Avvaliga u sekin odimladi, yo'lakka yotqizilgan plitalarni hafsa bilan bir-bir bosib, qadamlarini she'r ohangiga moslab tashladi. Otasining o'qituvchi Den Korsbi bilan qahvaxonaga kirib ketishganiga rosa bir soat bo'ldi, otasi uni universitetga joylashni gaplashmoqchi. Bir soatdan beri u nari borib, beri kelib, ularni kutib betoqat bo'layotir. Biroq endi sabri tugadi, ortiq kutolmaydi.

U Bull tomonga keskin burildi va otasining qattiq hushtak tovushi qulog'iga chalinib qolib, yana orqaga qaytmasligi uchun qichab yurib ketdi, bir necha soniyada mirshabxonadan o'tib, burchakka burildi va nafasini rostdab, o'zini xavotirdan xoli his etdi.

Ha, onasi uning universitet bilan bog'liq tashvishlariga ro'yxushlik bermayotgan edi. Buni onasining gap orasida churq etmay, sukut saqlab turganidan payqagandi. Biroq onasining ro'yxushlik bermayotgani otasining maqtanib gapirgan gaplaridan ko'ra kuchliroq ta'sir etib, uni tezroq bir qarorga kelishga qistardi. U o'zidagi diniy ta'limga so'nayotgan ishtiyoqning, aksincha, onasining qalbida tobora mustahkamlanib, kuchayib borayotganini sovuqqonlik bilan esladi. Mubham, xusumatli bu tuyg'u uning aql-hushini bulutday bosib, xiralashtirar, onasining orzu-istaklariga zid tarzda kuchayib borar va miyasini shubhali o'y-xayollar tark etib, ongi yorishgan chog'da ko'ngli tag'in farzandlik sadoqatiga moyil tuyg'ular bilan to'lib-toshar, ayni shu damlarda o'zi bilan onasi o'rtasida ilk bor ixtilof paydo bo'lganini - oralaridagi mehr-oqibatga bilinar-bilinmas darz ketganini g'ira-shira his etar va bundan afsuslanmas edi.

Universitet! Endi uni chaqirib to'xtatishning iloji yo'q, bolalik davrining qorovullari - o'z izmi va maqsadlariga bo'ysundirishga uringan qo'riqchilarning nazoratida u endi qutulib ketdi. Ko'nglidagi qoniqlik hissi, boz ustiga, g'urur misoli sekin ko'tarilayotgan to'lqinday, uning ruhini yuksaltirdi. U o'zini baxsh etishi lozim bo'lgan, biroq hali nimaligi noayon maqsad, sirli tarzda najot yo'lga boshlayotgan edi. Ayni damda ham bu maqsad uni o'ziga chorlayotgan va hayal o'tmay uning qarshisida keng, ravon yo'l ochiladiganday tuyulardi. Go'yo qulog'iga jo'shqin musiqa sadolari eshitalayotganday bo'ldi, kuy ohanglari goh avj pardaga

ko'tarilar, goh bir parda tushib, keyin tag'in avjga chiqar va kutilmaganda shiddat bilan bir qadar pastlashar - misoli tungi o'rmonda gurkirab yonayotgan uch tilli gulxanday tepaga o'rlardi. Bu bir g'aroyib muqaddima, bitmas-tuganmas, hech bir shakl-shamoyilga tushmaydigan avju daromad ediki, u tobora yuksalib borar, kuy maromi bardavom shiddatli tus olar, alanganing tillari gulxandan uzilib, tepaga sapchir va u butalar, o't-o'lonlar tagidan kelayotgan - yovvoyi yirtqichning yaproqlarga shitob bilan urilayotgan yomg'ir shovqinini eslatuvchi tuyoqlari dupiriini eshitayotganday bo'ldi. Quyoning, olqoru marallarning gurros yugurgan maydaqadam shovqini beixtiyor uning ongiga ko'chdi va nihoyat u shovqinlarni farqlamay qo'ydi, xotirasida esa Nyumen satrlarining tantanavor ohangi yangradi:

"Olqorning poyiday uchqur oyoqlar, ostidan o't chaqnar abadul-abad".

Bu muhjam obrazga singdirilgan tantanavor ruh o'zi voz kechgan ruhoniylilik martabasining ulug'vorligini yodiga soldi. Uning bolaligi ko'nglida rag'bat uyg'otgan, ado etishiga o'zini burchli deb hisoblagan da'vatga bog'langan orzu-o'ylar og'ushida kechdi, biroq ana shu da'vatga itoat etadigan daqiqalar yetib kelganida esa, qaysar fe'l-huqiga bo'ysunib, undan yuz burdi. Endi vaqt o'tdi. Tilyog'lamalilik bilan aytilgan tavba-tazarruning foydasi yo'q. Chunki u rad etdi. Xo'sh, nima uchun?

U Dollinmoutga yaqinlashganda yo'lni chapga soldi va yengil yog'och ko'prikdan yurib borayotib og'ir poyafzal kiyilgan oyoqlar dupuridan taxtalarining larzaga kelayotganini his qildi. Nasroniy birodarlar jamoasi Bulldan qaytayotgan edi. Ular juft-juft bo'lib tizilishib kelar va juftlar birin-ketin ko'priikka qadam qo'yardi. Endi ko'prik oyoqlar ostida lorsillab tebrana boshladi. Ularning goh sarg'ish, goh qizil, gohida to'qqizil tusdagi dengiz shu'lasini o'ynoqlayotgan yoqimsiz basharalari shundoqqina uning yonginasidan loppillab o'tar, ularga beparvo qarashga urinayotgan bo'lsa-da, yuzi achinish va uyat hissidan qizib ketganini sezdi. O'zining ahvolidan alami qo'zib, yuzini ularning ko'zidan yashirmoqchi bo'ldi va pastga, ko'prik tagida mavjlanib oqayotgan sayoz suvga qaradi, biroq ularning beso'naqay shlyapalari, ko'rimsizgina ensiz yoqalari va salanglagan rohibona jandalari suvda ham aks etardi.

- Xikki og'a.

- Kveyd og'a.

- Makardl og'a.

- Kyu og'a.

Ularning taqvodorliklari ham aynan ismlariga, yuzlariga, kiyim-boshlariga o'xshaydi; ularning itoatkor g'amzada yuraklari, ehtimol, sadoqatda uning yuragidan ko'ra tengsiz ekaniga - yaratganga matlub bu vafo-sadoqat o'zining ziyrak, tadbirli taqvodorligidan ko'ra yuz karra afzalligiga o'zini zo'r berib ishontirishga o'rganishi befoyda edi. Shundayin, agar payti kelib, mag'rurlikimni jilovlab, faqiru haqir qiyofada, juldur kiyim-bosh bilan ularning eshigi oldida paydo bo'lsam, mendan mehr-muruvvatni ayamaydilar va xuddi o'zlarini yaxshi ko'rganday meni suyub ardoqlay oladilar, deb o'ylab, o'zini olijanob bo'lishga chog'lashi ham befoyda edi. Va nihoyat, o'zining sovuqqon ishonchiga zid borib, ikkinchi o'gitda o'zgani xuddi o'zimizni yaxshi ko'rganday yaxshi ko'rishimiz lozim deyilgani mehr-muhabbatning miqyosi va kuchini nazarda tutib emas, balki xuddi o'zimizni yaxshi ko'rganday yonimizdagi kishini yaxshi ko'rishni amr etishini yoqlashga urinishi ham befoyda, boz ustiga, azobli edi.

U o'zining yon daftarchasidagi gapni esladi va ovozi chiqarmay ichida takrorladi:

"Dengizdan bino bo'lgan barra bulutli olachipor kun".

Gap va kun hamda manzara bir ohangga uyg'unlashgan edi. So'zlar. Yoki ularning rang-tusimikan? Bularga u turli ranglarda jilvalanishga va ranglarning birin-ketin o'chishiga imkon berdi. To'qqizil mis tusidagi oltin tong va yam-yashil olmozor bog', to'lqinlarning zangor rangi, girdiga sarg'imtil hoshiya tortilgan bulutlarning chuvalgan ipak tolalari. Yo'q, bular bo'yoqlar emas. Bu - gapning maromi va ohangi, xolos. Demak, unga so'zning bir maromda ko'tarilib, tushib turgandagi ohangi mohiyatidan va rangidan ko'ra ko'proq yoqarkan-da? Balki ko'zlarining xiraligi, fe'l-atvorining yuvvoshligi bois rangdor, jimjimoli tilda chiroyli ifodalangan yorqin, ko'zga yaqqol ko'rinadigan tasvirdan ko'ra, aniq, lo'nda va bir maromdagi prozada bekamiko'st gavdalangan shaxsiy his-tuyg'ularining mushohadasi unga ko'proq quvonch bag'ishlar?

U tebranib turgan ko'prikdan qattiq yerga tushdi. Shu daqiqada unga havoda sovuq turganday tuyuldi va u suvga ko'z qiririni tashlab, yopirilib kelgan kuchli shamol sokin to'lqinlarning oromini buzib, mavjlantirib yuborganini ko'rdi. Yuragi yengilgina silkinib, tomog'i tirishib-tortishgani sovuq, kishi tabiatiga yot dengiz hidiga vujudi toqat qila olmasligini sezirdi; biroq u chapga, qumtepalar tomonga burilmadi, aksincha, daryoga tik tushgan qoyalarni yoqalab yurdi.

Quyoshning xira nurlari daryoning ko'rfazga quyilgan joyidagi kulrang suv sathini elas-elas yoritib turardi. Uzoqda, sekin oqadigan Liffining quyi tarafida kemalarning bir tekis tizilgan machtalari osmonga tortilgan chiziqlarday, undan narida, tuman ichida esa shaharning ulkan inshootlari ko'zga tashlanadi. Gulu naqshlarining ranglari o'chib, to'za boshlagan eski gilamday, misoli rag'batdan mosuvo, shavqi o'chgan kishi kabi horg'in qiyofadagi nasroniy olamning yettinchi manzilgohi normanlar hukmronligi2 davridagiday hanuz qadimiy, o'shanday holdan toygan va uzoq vaqt asoratda saqlanganidan sabr-qanoatda barqaror, zamondan xoli makon oralig'ida elas-elas ko'zga chalinadi.

U ma'yus kayfiyatda boshini ko'tarib, ohista suzib borayotgan, dengizdan bino bo'lgan barra bulutlarga qaradi. Ular biyday samo sahosida oqib, ko'chmanchilar karvoniday Irlandiyaning tepasidan, juda balanddan g'arbga qarab yo'l tortib borardi. Ular kelayotgan taraf - Ovrupo narigi yoqda, Irlandiya dengizi ortida. Begona tillarda gaplashuvchi, tekisliklar bilan taram-taram tilingan, o'rmonlar bilan o'ralgan, qal'alar bilan qurshab olingan Ovrupo. Xandaqlar bilan himoyalangan va xalqlarni safarbar etishga shay Ovrupo. Uning qulog'iga allaqanday tushunarsiz, mujmal xotiralar musiqasi va ismlar chalinganday tuyuldi, bir zum ularni qariyb anglaganday ham bo'ldi, biroq hatto bir daqiqaga ham xotirasida saqlab qololmadi, keyin kuy ohangi asta-sekin uzoqlasha boshladi, tobora uzoqlashayotgan musiqa sadosining sokin oqimidan ajralib chiqayotgan bir cho'ziq da'vatkor ohang, xuddi qorong'i osmonni teshib chiqqan yorqin yulduzday, shom qorong'usidagi sukunatni buzib ravshan eshitilardi. Mana, yana! Yana! Go'yo narigi dunyodan chorlayotganday bir tovush eshitildi:

- Salom, Stefanos!

- Ana, Dedal kelayotir!

- A-a, bas qil, Dvayer! Senga aytayapman! Hozir basharangga tushiraman! A-a!

- Bopla, bopla uni Tauser! Botir, botir uni!

- Bu yoqqa, Dedalus! Bus Stefanumenos! Bus Stefanoforos!

- Botir uni, Tauser! Cho'ktir, cho'ktir uni.

- Qutqaringlar, qutqaringlar!.. A-a!..

Stiven ularni yuzlaridan ajratib ulgurmay ovozlaridan tanidi. Loyqaga belangan, jiqqa ho'l yalang'och gavdalarning turqi-tarovatidan eti junjikib, badanini qaltiroq bosdi. Ularning murdaday oqarib ketgan yoxud oq-sariq tovlangan yo bo'lmasa quyosh

tig'ida kuygan badanlari ho'lligidan yiltillardi. Toshga nari-beri o'rnatilgan, sakraganda liqqillab turgan taxta supacha, tik tushgan to'g'onning bolalar tirishib-tirmashib chiqadigan qo'l uchida tarashlangan toshlari sovuq yaltirab turardi. Ular dengizning muzday suviga botirib olingan ho'l sochiqlar bilan bir-birini savalashar, betlariga yopishib qolgan sochlari ham sovuq sho'r suvdan jiqqa ho'l edi. U to'xtab baqiriq-chaqiriqlarga, hazil-huzullarga javob qildi. Ularni turqidan tanib bo'lmasdi: Shyuli - egnida doim kiyib yuradigan keng, ochiq yoqali ko'ylaksiz, Ennis - ilon nusxa to'g'ali ochqizil kamarsiz, Konnoli - o'zining enli, cho'ntaklarining qalpog'i so'kilgan kalta kamzulisiz. Ularga qarab yurak achiydi, balog'atga yetib qolganlarini bildirib turgan alomatlarini ko'rish esa battar achinarli; ko'zi tushgan odam, bu alfozda ko'rib, ulardan jirkanishi tayin. Ehtimol, odam gavjum va shovqin-suron bo'lgani uchun ularning o'zlariga bu unchalik sezilmayotgandir. Bolalardan uzoqda, shovqin-surondan xoli xilvatda o'z tanasining pinhona mayillaridan qo'rquvga tushgani uning yodiga keldi.

- Stefanos Dedalos! Bus Stefanumenos! Bus Stefanoforos!

Bolalarning hazil-mazaxlariga u ko'nikib ketgan edi, hozir ham uning o'zlaridan ustun bo'lgan og'ir-bosiq, g'ururli fe'l-atvorini ular mayna qilishardi. Hozir, har qachongidan ko'ra, uning g'aroyib ism-sharifi karomatday yangradi. Bulutli iliq havo ham favqulodda ajoyib edi, uning kayfiyati ham ayni damda beqaror va tajang, nazarida o'tgan barcha asrlar qo'shilib, qorishib ketganday. Atigi bir nafas burun uning ko'ziga ko'hna Doniyo qirolligining sharpsi g'ira-shira tuman pardasi ortida namoyon bo'lgan edi. Endi afsonaviy usta! ismidagi unga sidirg'a to'lqinlar shovqini eshitildi; unga to'lqinlar ustida parvoz qilayotgan va asta-sekin yuqoriga ko'tarilib borayotgan qanotli soya ko'rinayotganday tuyuldi. Bu nima? Bu o'rta asrning allaqanday bashoratlar va timsollar kitobining muqaddimasidagi antiqa belgi bo'ldimikan? Yoki ko'kdagi lochinga o'xshab, dengiz uzra quyosh sari uchayotgan bu odam, u ado etishi lozim bo'lgan, bolalik va o'smirlilikning tumanli so'qmoqlari osha yetib kelgan maqsadu murodining darakchisi, o'zining dastgohida johil, mutaassib dunyo unsurlaridan qayta boshdan yangi, yengil, lojuvard, boqiy mavjudlikni yaratayotgan musavvir timsolimikan?

Uning yuragi dukkillab ura boshladi, nafasi tezlashdi, go'yo u tepaga, quyosh tomon uchayotganday, shiddatli shamol a'zoyi-badanini ilma-teshik qilib yuborganday bo'ldi. Yuragi qo'rquvdan tez urar, ruhi esa go'yo tanasini tark etgan, falakka ko'tarilib ketgan edi. Ruhi narigi olamda uchib yurardi va tani, unga o'tning qashqasiday tanish tani bir nafas ichida ishonchsizlikdan xalos bo'ldi, tamom poklandi, nurga yo'g'rildi va ruhining ozod parvozigga uyg'unlashdi. Uning ko'zlari parvoz shavqidan chaqnar, nafas olishi tobora zo'rayib, uchirib ketayotgan shamolga inon-ixtiyorini topshirgan tani esa hayajondan titrar, jo'shar, huzurlanib yayrardi.

- Bir, ikki... Qoch!..

- Krayps, cho'kayapman!..

- Bir! Ikki! Uch! Sakra!..

- Kimning gali, qani kel!..

- Bir.. Uf!..

- Stefanoforos!..

Uning lochinday yoki tik qoyadagi burgutday o'zining ozod bo'lganidan zavqlanib uchqur shamolga basma-bas qattiq chinqirgisi kelib tomog'i zirqiradi. Hayot, tiriklik shavqi uning ruhini yuksakka chorlab ovoz berardi, biroq bu uni cherkovning yakrang va bemaqsad xizmatiga chaqirgan majburiyatlar va afsus-nadomatlar dunyosining zerikarli, to'pori ovozigaga o'xshamasdi.

Bir lahza davom etgan tiyiqsiz parvoz uni illatlardan forig' qildi va lablarida zo'rg'a tutib turgan sevinch hayqirig'i shiddat bilan ongiga yopirilib, aks-sado berdi:

- Stefanoforos!..

Endi bu illatlar misoli omonat jasaddan sidirib olingan kafanday: yuragiga mudom g'ulg'ula solgan qo'rquv ham, jonini qiynoq-qistovga olgan ishonchsizlik ham, ich-etini tinimsiz kemirgan gunohkorlik tuyg'usi ham - bor-yo'g'i mayitni o'rab-chirmagan bo'z latta, kafan, xolos.

Uning ruhi o'smirlilik lahadidan bu kafanni sidirib tashlab, dast turdi. Ha! Ha! Ha! Xuddi o'sha buyuk usta kabi, ismini o'zi olib yurgan ulug' san'atkorga o'xshab u yuragining ozod tuyg'ulari va kuch-quvvatidan g'urur bilan butkul yangi dunyo yaratadi - hali ko'z ko'rib, quloq eshitmagan, jonli, go'zal, hayratlanarli va bezavol g'aroyib dunyo bino etadi.

U qiyalikdan yugurib tushdi, tomirlarida jo'sh urib qaynagan hayajonni bosishga ojiz edi. U ikki yuzi lovullab yonayotganini his etdi, bo'g'zini kuylanmagan bir qo'shiq kuydirib borar, oyoqlari yo'l tanobini tortishga - dunyo kezishga mahtal edi. Olg'a! Olg'a! - deya hapqirardi uning yuragi. Dengizga shom qorong'usi tushadi, vodiyya oqshom cho'kadi, sayyoh qarshisida tong jilvalanadi va uning ko'ziga notanish dalalar, qir-adirlar, chehralarni namoyon etadi. Biroq qayerda?

U shimolga - Xout8 tarafga qaradi. To'g'onning qiya yonbag'ridagi baqato'nlarini ochiq qoldirib, ortga qaytgan dengiz to'lqinlari sohil bo'ylab shitob bilan bostirib borardi. Suvning jimirlayotgan sayoz sathidan cho'zinchoq gardish shaklida iliq va quruq qumloqlar chiqib qoldi. Sayoz suv sathining u yer, bu yerida qumloq orolchalar yiltillab ko'rinadi, orolchalarda va dengizning qirg'oqqa yaqin joylaridagi mayda jilg'achalar orasidagi plyajda yarim yalang'och odamlar qorasi ko'rinadi, ular engashib, qumloqdan nimanidir olishib, borib-kelib ivirsib yurishadi.

Oradan biroq o'tgach u yalangoyoq bo'lib oldi, paypoqlarini cho'ntagiga tiqdi, kanopdan tikilgan poyafzalini yechib, bog'ichlarini bog'lab yelkasiga tashladi, so'ng to'lqin oqizib kelgan uchi o'tkir, sho'r suvda chiriq boshlagan tayoqni axlat ichidan sug'urib oldi va to'g'onni yoqalab pastga tushdi.

To'lqin qaytgan qumloq qirg'oqda jilg'achalar yugurib oqardi. U qirg'oq bo'ylab, suv osti o't-o'lanlarining tinimsiz harakatini kuzatib, asta-sekin odimladi. Zumrad tusli, qora, malla, zaytunrang o't-o'lanlar suv ostida eshilib-buralib, tebranib harakat qilardi. Bu tinimsiz harakatdan qoramtir tusga kirgan suv yuzi tepada suzib borayotgan bulutlarni aks ettirardi. Osmonda bulutlar ohista suzar, pastda esa dengiz o't-o'lanlari sokin tebranar, bulutli iliq havo osoyishta, uning tomirlarida navqiron, sururli hayot shavqi jo'sh urardi.

Uning o'smirligi qayoqqa g'oyib bo'ldi? Uning o'z qismatiga chap bergan, faqirlikni ixtiyor etgan, tanholikda o'z dardu alamlariga qorishib, notavonlik va chorasizlikdan egniga rido ilmoqni, qo'l tekizgandayoq to'kilib tushadigan jandaga o'ranishni afzal bilgan so'qir ko'ngil mayllari qayga daf bo'ldi?

U yolg'iz o'tiribdi. O'tgan kunlariga qo'l siltagan, xushbaxt, hayotning sarxush qiluvchi ma'nisidan tatingan, sururli kayfiyatda. Yolg'iz o'zi - yosh, g'urur bilan, g'ayratga to'lib, sarxush havoda sho'r to'lqinlar, dengiz chiqarib tashlagan chig'anoqlar va o't-o'lanlar orasida, quyoshning ko'kimtir-sarg'ish nuri ostida bir o'zi, nariroqda yengil kiyingan bolalar va qizlar chopqillashadi, havoda ularning quvnoq, sho'x-shodon ovozlari jaranglaydi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Ular ham o'zaro qo'shgan misolida talim o'z yo'lga qilt etmay dengizga termilib turibdi. Go'yo allaqanday sehrli kuch uni tirik jonzotga, g'aroyib go'zal dengiz qushiga aylantirib qo'ygan. Qizning oyoqlari uzun, kelishgan, xuddi qarqaraning silliq, mayin, nozik oyoqlariday oppoq, faqat ularga ilashgan zumrad tusli dengiz o'ti yarashliq belgi solganday. Oyoqlarning tizzadan teparog'i xiyla bo'liqroq, rangi fil suyagiday, kaltagina lozimasining parparaklari oq kaptarning momiq patlariday oppoq oqarib turibdi. Hech bir tortinishsiz oldini qayirib beligacha rostlab turilgan havorang ko'ylagining etagi kabutarning dumiday, ortiga tushgan. Ko'ksi - qushnikiday, nozik va mayin, xuddi qoraqanot kaptarning to'shiday. Biroq uning uzun kumush sochlari benihoya latif, iffat va nazokat balqigan yuzi ham o'ta tarovatli, favqulodda go'zal.

Qiz yolg'iz o'zi, dengizga termilgan qilt etmay turar, biroq uning shu yaqin-oradaligini, o'ziga ixlos va mehr bilan tikilayotganini sezganida qizning ko'zlari unga xotirjam boqdi va nigohi uning nigohi bilan tortinmay, so'zsiz-so'roqsiz uchrashdi.

Qiz ancha vaqt ko'zlarini uzmay qarab turdi, so'ng xotirjam nigohini chetga oldi va pastdagi jilg'achalarga termilib turib, suvni oyog'i bilan nari-beri chayqay boshladi. Ohista chayqalayotgan suvning shovqinsiz mayin tovushi sukunatni uyg'otadi, yengil, shildiragan, mayin, xuddi tushdagi qo'ng'iroq ohangiday - baland, past, baland, past - qizning nimpushti yonoqlari titraydi.

"Yo, mehribon xudo!" - Stivenning yuragi bu dunyoviy quvonch ehtirosidan xitob qildi.

U tuyqus qizga ters o'girildi va suvning sayoz joyidan shitob bilan yurib ketdi. Uning yuzlari lovullar, vujudi o'rtanar, oyoqlari titrardi. U oldga, tobora oldga talpindi, shavqqa to'lib dengizni sharaflab qo'shiq aytib, quvonchli qiyqiriqlar bilan uni chorlayotgan hayotga peshvoz yurdi.

Qizning siymosi uning qalbidan abadiy joy oldi, biroq bu muqaddas sukutning sururini biror-bir so'z buzgani yo'q. Qizning nigohi uni chorladi va yuragi bu chorlovga shitob bilan talpindi. Yashash kerak - adashib, tushkunlikka tushib, zafar qozonib, hayotdan yangi hayot yaratib yashash kerak. Unga olov farishtasi, boqiy go'zallik va navqironlik malagi, sururli hayot saltanatining elchisi namoyon bo'ldi va shavqli bir lahza ichida uning qarshisida adashishlaru afsus-nadomatlar va shon-shuhratning barcha yo'llarini ochib qo'ydi. Olg'a, olg'a, faqat olg'a!

U birdan to'xtadi va jimlikda yuragining dukkillab urayotganini eshitdi. Qayerlarga kelib qoldi? Hozir soat nechcha?

Tevaragida tirik jon yo'q, tiq etgan tovush eshitilmaydi. Biroq dengiz suvi ko'tarilib, to'lqin ortga qaytayotgan va kun nihoyasiga yetayotgan edi. U qirg'oq tomon burildi va sayoz yonbag'irdan tepaga qarab yugurib ketdi, oyoqlari ostidagi mayda keskir toshlarga e'tibor ham qilmadi; u qumloq tepaliklar orasidagi ovloq, o't-o'lanlar qoplagan soylikka tushib cho'zildi, shoyad bugun, shom chog'idagi bu sokinlik va jimlik tomirlarida ko'pirib toshayotgan ehtirosini biroz bossa.

U tepasida ulkan va baland ko'k gumbazini, osmon jismlarining xotirjam harakatini kuzatdi; tagidagi kindik qoni tomgan va uni yo'rgaklab bag'riga olgan zaminni tuydi.

Toliqib, uyqu xurujida ko'zlarini yumdi. Yerning oliy maqomdagi kuch-quvvatini va uning posbonlarini his etganday uning yonoqlari ucha boshladi, allaqanday yangi, sirli olamning g'alati ta'sirini sezganday bo'ldi. Ruhi cho'kib, xayolan yangi, o'zgacha xayolot olamiga, noayon qorong'u dunyoga, vahimali maxluqlar va haybatli ko'lankalar sudralib yuradigan dengiz qa'riga o'xshash olamga sho'ng'iy boshladi. Olam miltillagan nurmi yo gul? Miltillab va titrab, titrab yolqin taratib ochilib, barq urayotgan gulday olam mislsiz harakatlar bilan yorishib borayotir, goh ochqizil gulday alangalanib, goh oq atirgulga o'xshab tusi o'chib, gulbarglari qavat-qavat, ranglari to'lqin-to'lqin taralib, falakni yengil, biri-biridan yorqin alangalarga g'arq etayotir.

U uyg'onganida qosh qorayib qolgan edi, cho'zilgan joyidagi qum va qovjirab qolgan o't-o'lanlar endi turli-tuman ranglarda tovlanmasdi. U o'rnidan sekin turdi va tushida ko'rgan-kechirgan sururli lahzani xotirlab, zavqqa to'lib, chuqur entikdi.

U qirning tepasiga chiqdi va chor-atrofga ko'z yugurtirdi. Allaqachon qorong'i tushgan edi. Qumga qadalgan kumush halqaday yangi oyning gardishi ufqning bo'zargan kengligini tilib chiqib turardi; dengiz to'lqinlari ohista shovullab, uzoqdagi qumloq sohilda yurgan yakkam-dukkam kech qolgan odamlar qorasini, xuddi orolchalarini o'rab olganday, o'rab qirg'oq tomon shitob bilan bostirib kelardi.

AvvalgiII- qismB Keyingi

В† "Men yuksalдим, misoli Livandagi qarag'ayday va Yermon tog'laridagi sarv yanglig', Yengad xurmosi va Iyerixon atirgulining butog'iday ko'kka bo'y cho'zdim. Men, vodiydagi go'zal zaytunday va chinorday qad rostladim. Misoli dolchin va aspalaf singari olamga atrimni yoydim va eng a'lo isiriq kabi mushk-anbar taratdim" ("Injil").

В† Tangrimizning tani (lotincha).

В† Abadul abadga. Omin (lotincha).

В† "Boringlar! Ibodat tugadi" (lotincha) - ibodatning so'nggi so'zi.